

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tabiatshunoslik va geografiya fakul`teti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası

«Geografiyani o`qitish metodikasi» ta`lim yo`nalishi

4 b-kurs talabasi

Aqbaev G`anijon Zoir o`g`lining

**«O`zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati yer-suv nomlariga
geografik tarif va o`quv o`rganish uslublari» mavzusidagi
bakalavr**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kafedra mudiri:

p.f.n., dots. Gaypova R.

Ilmiy rahbar:

g.f.n., dots. Seitniyazov Q.

Nukus 2015

Mundarija

	Kirish.....	3
I. BOB.	Toponimika va geografik nomlarning paydoo bo`lishi	6
1.1	Toponimika va atamashunoslikning rivojlanishi.....	6
1.2	Geografik nomlarning paydo bo`lishi	8
1.3	Geografik atamalar va tushinchalar	21
II. BOB.	Geografik nomlar manosi va toponimik ma`lumotlardan foydalanish	27
2.1	Geografik nomlar manosi.....	27
2.2	Toponimlarning paydo bo`lishi va xususiyatlariga ko`ra turlari.	28
2.3	Toponimik ma`lumotlardan foydalanish	31
III. BOB.	Xorazm viloyati yer-suv nomlariga geografik ta`rif	34
3.1	Xorazm toponimlari haqida tusdhincha	34
3.2	Xorazm viloyati toponimlari.....	46
	Xulosa.....	56
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	65

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Toponimika fanining maqsadi, geografik atama va nomlarini o`rganish, ularning o`ziga xos belgilarni aniqlash, atama va nomlarni vujudga kelishi, mohiyatni tahlil qilishdir. Fanning vazifasi muayyan tildagi geografik nomlarni to`plash, ularni rivojlanishini o`rganish, araellarini aniqlash, nomlarning leksik-sematik, grammatik xususiyatlarini eritish, toponimika lug`atlar tuzish, joy nomlari transkripsiyasi singari muammolari bilan shug`ullanishdir. Umuman toponimika til xaqidagi fanlar tizimiga munosib fanlardan biri, lingvistikaning bir tarmog`i. Biroq joy nomlari boshqa so`zlardan farq qiladi. Geografik qonuniyatlari tushunchalar va terminlarni (rel`ef shakllari, dare tarmoqlari ko`llar, muzliklar, o`simliklar va hayvonlar nomlarini, foydali qazilmalarni) aks ettiradi.

Maqsadi va vazifalari. Toponimika geografiyaning ajralmas qismi xisoblanadi. Shunday qilib toponimika tilshunoslik, tarix va geografiya fanlari o`rtasida vujudga keladi. Atama va nomlar esa geografik tilidir. Geografiya va geografiya ta`limini atama nomlarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Mashhur geografik olim E.M. Mirzaev ta`kidlashicha, jamiyat geografik nomlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Ular xamma erda uchraydi va bizning fikrimizga eshlikdan hamrox bo`ladi. er sharida xamma narsa o`z adresiga ega. Bu insonning tug`ilgan joyida boshlanadi. Inson yashaydigan hamma qishloq va shahar, ko`cha mamlakatining o`z nomi

bor. Xar kuni o`qiladigan gazeta, jurnal, klassik adabiet madaniyat va fanning rivojlanishi bizning tilda yangi geografik nomlar zahirasini ko`payishiga olib keladi.

Jamiyat tuzumidagi o`zgarishlar, ya`ni ijtimoiy tuzumning o`zgarishi, davlatning milliy siyosati hududlarning davlatlarga mansubligi, davlat siyosati, mamlakatlarda qaysi halq tili qanday mavqega egaligi, geografik kashfiyot va tadqiqotlarning kimlarga mansubligi, geografik atama va nomlarda o`z ifodasini topadi.

Predmeti va obekti. O`zbekiston Mustaqillikga erishganidan keyin uning hududidagi geografik nomlarning ko`pchiligi o`zgardi va o`zgarmokda. O`zbekistondagi geografik ob`ektlar Rossiya imperiyasi bosib olganidan keyin sobiq Sovet davrida qo`yilgan nomlar qayta ko`rib chiqilib, ularga o`zlarining qadimiy tarixiy nomlari qaytarilmokda. Mustaqillik bilan bog`liq yangi nomlar paydo bo`lmoqda.

Geografiya atama va nomlar ta`limi “O`zbekiston Davlat tili” (1989 yil 21 oktyabr) va “O`zbekiston Respublikasida ma`muriy hududiy tuzilishi, toponimik ob`ektlarga nom berish va ularning nomlarini o`zgartirish masalalarini hal qilish to`grisida” (1996- yil 21- dekabr) haqidagi qonunlarni haetga tadbqiq qilish va zamon talablariga javob beradigan geografiya o`qituvchilarini tayerlash munosabati bilan katta amaliy ahamiyatga egadir.

1997-yil O`zbekiston Respublikasi Davlat tili xaqidagi qonunga o`zgartirishlar va qo`shimchalar kiritish to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qabul qildi. Davlat tili haqidagi qonun (yangi taxrirda) tasdiqlandi. Uning 22-moddasida shunday deyilgan.

Respublikaning ma'muriy hududiy birliklari, maydonlari ko'chalari va geografik ob'ektlari nomlari Davlat tilida aks ettiriladi.

Ishning yangiligi. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududiy tuzilish toponimik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarining hal etish tartibi to'g'risida qonuni ta'kidlanishicha ushbu qonun ma'muriy hududiy birliklar, aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlariga shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tabiiy geografik, geologik va boshqa ob'ektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibini belgilaydi.

Qonunning VI-VII-VIII-IX qismlarida va ularning tarkibiga kirgan 17 ta moddasida ma'muriy hududiy birliklar, tabiiy - geografik ob'ektlar, korxonalar muassasalarni nomlash ularning nomini o'zgartirish asoslari va bu ishni tartibi haqida gap boradi.

1996- yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Qzbekiston Respublikasidagi ma'muriy - birliklar axoli punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik ob'ektlarni tartibga solish to'g'risida qaror qabul qildi. qarorda joylarda toponimik ob'ektlarning eski tuzumga xizmat qiladigan xalqimizning tarixi milliy an'analariga bog'liq bo'lmagan nomlarning saqlanib turganligi qoralanadi va boshqa nomlar almashtirish lozimligi, bu ishni boshlash va tugallashni aniq muddati belgilandi.

I BOB. T9p9n8m8ka va g39g4af8k n9mla4n8ng pa6d9 b9:l8sh8

a'.a'.T9p9n8m8ka vaa5amash7n9sl8kn8ng 48v9jlan8sh8

Geografik nomlar ayniqsa ularning ma'naviy ahamiyatga qiziqish, qadimgi yunonlarda paydo bo'lgan. Toponimik kichik maqolalar Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Diodor Sitsiliyskiyning "Biblioteka" va boshqa yunon olimlarining asarlarida uchratiladi. Geografik nomlar qadimgi rus solnomalarida "Slova o polku Igoreve", "Kniga Bol'shomu cherteju" va boshqalarda ham uchraydi. Bularda faqatgina geografik nomlar keltirilmasdan balki ularning kelib chiqishini aniqlashga ham intilishlar bo'lgan

Turkiston xududida o'rta asrlarda yashab ijod qilgan olimlar (Abu Rayxon Beruniy, Maxmud qashg'oriy, Bobur va boshqala) asarlarida toponimika muhim muammolari taxlil qilingan. Masalan, Abu Rayxon Beruniy to'qqizinchi asrdaeq biron xududni boshqa tilda so'zlashuvchi xalq, qabila bosib olsa nomlar tez o'zgaradi. Ularning nutq a'zolari nomlarni noto'g'ri talaffuz qiladi va shu xolda o'z tiliga o'tkazadi. Bu yunonlarda ko'proq kuzatilgan. Ular so'zni dastlab ma'nosini olishadi, biroq nomlar o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Shunday yo'l bilan yunonlar va arablar turk tilidagi ko'pgina geografik nomlarni buzib ezganlar.

O'rta asrlarda ijod qilgan Maxmud qashg'ariy toponimika rivojiga katta xissa qo'shgan. Bu olim "Devonu lug'atit turk" nomli asar ezib

qoldirgan. hozirgi zamon ko`p olimlarning fikricha bu asar joy nomlari lug`ati desak bo`ladi. Maxmud qoshg`ariy o`z asariga bir xarita ilova qilgan, unda 200 ga yaqin geografik nomlar (mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, tabiiy - geografik ob`ektlar) keltirilib, ularga geografik va etimologik izoxlar bergan. U turk tili guruxiga kiruvchi deyarli xamma tillarni o`rgangan.

Zaxiriddin Bobur o`zining “Boburnoma” asarida geografik nomlarga katta e`tibor qaratgan. Bu asarda juda ko`p geografik nomlar uchratiladi va ularga izoxlar beriladi. Geografik nomlarga rus olimlari ham katta e`tibor berishgan. Bulardan V.N. Tatishev, A.X. Vostakov, V.I. Dal`, N.P. Borsov, N.I. Berezin, V.P. Simenov, Tyan-Shanskiy, N.I. Nadejdin va boshqalarni ko`rsatish mumkin. Rossiyada toponimikani o`rganishda N.I. Nadejdinning roli ayniqsa katta bo`lgan. Uning fikricha tarixning birinchi beti geografik landkarta bo`lishi kerak. Landkartani o`rganish tarixni o`rganishdan boshlanishi kerak. Shunday qilib Nadejdin toponimik tadqiqotlarda birinchi bo`lib xaritashunoslik uslublarini qo`llash masalasini ko`tarib chiqadi. U toponimlarni o`rganishda shoshqaloqlikga qarshi chiqadi. Uning ezishicha, so`z bizning ixtierimizda u ximoyasiz, undan xar xil ma`noni chiqarish mumkin. Uning fikricha tarixni o`rganish geografiya xaritalarni taxlil qilish bilan boshlanishi kerak. Nadejdin Toponimika - bu yer tili degan ma`noni birinchi bulib aytgan.

XIX asrning oxirlaridan boshlab toponimikaga qiziqish kuchaydi. Geografik nomlarni o`rganish uchun jamiyatlar tuziladi. Masalan AQSh da 1890-yilda geografik nomlar Byurosi tashkil qilingan. Rossiya geografiya jamiyati qoshidagi geografik terminlarni o`rganish komissiyasi tashkil

qilingan. Komissiya 400 dan ortiq geografik terminlardan lug`at tuzishda Nadejdin, Dal` va boshqalar qatnashgan. XX asrning 40-yillaridan boshlab toponimika fani tez rivojlana boshlaydi. Bu davrdan boshlab toponimikaning nazariy muammolariga ham katta e`tibor berila boshlaydi. E.M. Murzaev, V.A. Nikonov, A.I. Popov, V.A. Jukevich, X.X. Xasanov, E.N. Pospelov, S. Qoraev, A.V. Superanskaya, A. Mqminov, F.G`ulomovlar toponimika fanining rivojiga katta xissa qo`shdilar.

a'.g'. G39g4af8k n9mla4n8ng pa6d9 b9:l8sh8

Geografik nomlar turli tuman, ajoyib va g`aroyibdir, soni esa juda ko`pdir. Bundan tashqari er yuzasidagi ko`plab geografik ob`ektlar o`z nomiga ega emas. Bu narsa yaxshi o`zlashtirilmagan, tekshirilmagan xududlar (cho`llar, baland tog`li o`lkalar, Antarktida va boshqalar) uchun xosdir.

Mavjud geografik nomlarning kelib chiqishiga qarab shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin.

Joyning holati, xosiyati, yer yuzasi va iqlimiga bog`liq nomlar. yer yuzasida “shimoliy”, “janubiy”, “g`arbiy” va “sharqiy” ma`nolarni anglatadigan burun, orol va daryolar bor. Masalan: Nord kop (Shimoliy burun), Xokkaydo (Shimoliy orol), Rio-Grande del` Narte (Shimoliy katta dare) Sharqiy Xitioy dengizi, Shimoliy Tyan-Shan`, G`arbiy Tyan-Shan`, Orkaloy, o`rta-Dengiz va boshqalar.

Joyning xavosi va quyoshga nisbatan ifodalanuvchi nomlar, Masalan: Kun gay Olatau, Terskoy Olatau, Sovuqdala, Chili (sovuq).

Yer yuzasi re`lefiga bog`liq nomlar juda ko`p. Masalan: Qoraqum – suvsiz, o`simliksiz, xunuk tosh uyumlari demakdir. Islandiya (Muz o`lkasi),

Shpitsbergan (Nayzatog`) Manblan, (Oqtog`) umtepa, Belisiniq va boshqalar.

Nurash natijasida xosil bo`lgan re`lef shakllari Odamtosh, qo`ytosh, Teshiktosh, tor daralar-Zindonsoy, Uradare deb atalgan.

Geografik ob`ektlarning ko`rinishi xususiyatidan kelib chiqqan nomlar-Bashpanja, Og`zikeng, Ichaksirt, Tumshuqcho`qqi, Tuyamo`yin va boshqalar.

Geografik ob`ektlarning xajmi va miqdori-Uchko`l, ettiquduq, Oltiariq, Beshariq, Kengdala, etimbuloq, Egizbuloq va boshqalar.

Geografik ob`ektlarning joylanish o`rni Chuqurovul, Tubanovul, O`rtaovul, Pasqishloq, Tepaqishloq, Jarqishloq va boshqalar.

Suv ob`ektlariga bog`liq nomlar. Daryo, ko`l va quduqlar katta kichikligiga, suvning rangi, sho`rligi, tozaligi, chuqurligiga qarab turlicha nomlangan. Suv tiniq va toza bo`lsa Oynako`l, Oynabuloq, chuqur va toza bo`lsa Ko`ksuv, qordan boshlangan suvlar bo`lsa Oqsuv, loyqarog`i - Ayron ko`l, Sarisuv deb ataladi. Masalan: Xuanxe “Sarg`ishdare” degani.

Chuqur va sho`x darelar qizil so`zi bilan ifodalanib Suxrob Kolorado (ispancha) deb atalgan.

Qorasuv-“buloq suvi” - tekis yerda sekin oqadi. Daydi suvni Farg`onada Tentaksoy deyilgan. Surxondaryoda Jinni daryo xam bor, u baxorda burkirab oqib, toshib ketadi, qirg`oqlarini o`piradi. yemiradi, ezda esa suvi qurib qoladi.

qishda muzlamaydigan suv ob`ektlari ham bor. Bularga issik nom berilgan. Masalan: Issiqko`l.

Suv ob`ektlarini suvi sho`r eki nordrn bo`lsa, Sho`rquduq, Achchiqko`l, Sho`rbuloq deb atalgan.

Yer osti suvlari fontansimon otilib chiqsa -qaynarbuloq deb atalgan. Agar buloqlar suvi issiq va mineral bo'lsa-Issiqsuv, Obigarm, Obirahmat, qo'tirbuloq, Arashon deb ataladi.

Xaritalarda Ters, Tersoqar nomli darelar va soylar bor. Bular asosiy darening oqim yo'nalishiga teskari, ters xolatida bo'lganidan eki xarakat xsusiyatlaridan Tezoqar, Yugurikariq, Tentaksoy, Jinnidare, To'plangsoy va boshqalar shundan nom olgan.

Bunday nomlar keng tarqalgan. Masalan Konibodom ya'ni Bodom shahridir deb xatto Bobur ezib ketgan. Amudaryoda Maymunto'qay nomli chakalakzor bor. Bu bir zamonlarda maymunlar shu ergacha tarqalganligidan dalolat beradi. Qozog'istonda Taldiqo'rg'on, qarag'anda (qora tikanli buta), qoratul, Ko'kterak, Terakzor, Ruminiyadagi bir qishloqning nomi Kirasaya ya'ni G'olcha qishlog'i, Ozarbayjondagi Xinaluk qishlog'i xinazorlari bilan mashxur, G'arbiy evropadagi Shvartsval'd (qora o'rmon), Janubiy Afrikadagi Drakon tog'lari (drakon-o'simlik) Shimoliy Amerikada Florida (ko'kalamzor), Kokos orollari javzi Xindiy (eng'oq), Bukovina (buk), qzbekistonda Jiyda-buloq Archazor, Shuvoqli, Chilonzor kabi nomlar bor.

Xayvon nomlari bilan ataluvchi ko'plab geografik nomlar mavjud. Masalan, Qoplonqir, Qoplonsirt, Zirabuloq, G'azalkent, Kaptarxona, Bo'rixona, Jayronxona, Minqush, (Qirg'izistonda) Med'vedgorsk, Olenogorsk, (Murman oblastida), Tyulen' qo'ltig'i (yangi er orolida), Galapagos orollari (Galapago-toshbaqa).

Baykal qo'ltig'ining o'rtasidagi orollardan to'rttasi Tushkan deb ataladi. Maxalliy axoli tushkan deb quyonni ataydi. Darxaqiqat bu orollarda quyonlar ko'p tarqalgan.

Xalq geografik ob'ektlarni aloxida xususiyatlarini e'tiborga olib qo'ygan nomlar xam bor. Nom berishda odam va xayvonlarni aloxida a'zolariga xam e'tibor berishgan. "Og'zi", "Burni", "qulogi", "Shoxi" va boshqalar. Masalan: Muruntau, Oqtumsuq, Sibirdagi Xamar (Mongolcha-burun), Svyatiy Nos (Dimitriy-Lapt'eva qo'ltig'ida) Baykal ko'lida, Volchiy nos (Ladoga ko'li qirg'oqida) Balvonskiy nos (Vaygach orolida), Ay-Burun (qrimning Janubida) Krivoy Rog (Ukrainada), Krasniy Rog (Bryansk oblastida). Foydali qazilmalarga bog'liq nomlar.

Bunday nomlarning bir qismi foydali qazilmalar ochilganiga qadar berilgan. Masalan gazli, Oltinbel, Bir qismi esa konlar ochilganda keyin berilgan. Toshko'mir, Maylisuv, Mayliko'l (Qirg'izistonda) Jezqazg'an, Temirtau (Qozog'istonda), Nebitdog', (Turkmanistonda) Kumushkon Konsoy, Tuzkon, Oltinkon, Achchiqtosh, Surmatosh, Oltintog', Oltiqoplon, Oltinbel, Oltinbel, Oltintepa, Oltinli soy, Kumushli, Achchiqsuv, Sho'rsuv, Sho'rbuloq, Simob, Miskon, (O'zbekistonda) Magnitnaya gora, (Uralda) Magnitogorsk shaxri, Marmar dengizi (dengizdagi bir orolda marmar qazib olingan). Terliqoya (Terlab turgan qoya) Oltoyda, tog'ning en bag'rida yaltiroq suyuqlik tomchi-tomchi bo'lib chiqib turgan, tekshirib ko'rilsa, bu simob ekan.

Argentina mamlakatining nomi argentus-"kumush" nomidan olingan. Xunar-kasbdan olingan nomlar.

Bunday nomlar O'zbekistonda ayniqsa keng tarqalgan. Bo'zchi, Bo'eqchi, Sovungar, Egarchi, Pichoqchi, Tokchilik, Go'zabozor, Cho'ponbozor, o'qchi, Tabibko'cha, qalandarxona, o'rda kabi nomlar axolining xunar kasbidan me'rosdir. Dushanba shahrining bir qismi Shishaxona deb ataladi. Arxeologlar bu yerda Karvonsaroy qoldiqlari,

qadimgi lagan-piyola siniqlarini topishgan. Demak bu yerda qadimgi kulolchilik chinnisozlik korxonachi bo'lgan. Dunyoning ko'pchilik shaharlarida shu kabi kasbdan olingan nomlar bor. Xo'jalik buyumlaridan olingan nomlar.

Xo'jalik buyumlari nomlari ham geografik nomlarning kelib chiqishida faol qatnashgan. Masalan: "qozon" so'zi bu turkcha so'z bo'lib, u ruslar, ukrainlar, beloruslar, bolgarlar tomonidan qabul qilingan. qozon so'zidan kelib chiqqan bir qancha nomlar mavjud. qozon shaxri (Tataristonda), qazajiq, (Turkmanistonda), qozonbuloq (Ozarbayjonda) qozonsuv, (Shimoliy Kavkazda) qozonlik (Bolgariyada).Xaritalarda "Darboza" so'zidan kelib chiqqan nomlar uchraydi. Masalan Darboz tizmasi, Darboz daryosi (Tojikikistonda), Darboza (qoraqum cho'llarida) va boshqalar.

Xalq, qabila va urug'larga bog'liq nomlar.

Toponimika etnonimlar deb ataladi. Bunday nomlar tarixiy davrlarda halqlarning qayerlarda yashaganligidan va o'zaro aloqalaridan guvoxlik beradi. Bu nomlar Turkiston hududida juda ko'p uchraydi. Masalan: Ayronchi, Arab, Asaka, Baliqchi, Boevut, Borlos, Bo'ka, Do'rmon, Malik, Mitan, Mo'qo'l, Nazarbek, Naymon, No'kis, Olot, Savay, Sunduqli, Sirg'ali, Turk, Turkman, Uyg'ur, Chimboy, Chig'atoy, Karluq, Qashqar, Qipchoq, Qozoq, Qurama, Qo'ng'iro't va boshqalar. Xalq qabila va urug'larga bog'liq nomlar boshqa o'lkalarda ham keng tarqalgan. Masalan: Qirg'iz tizmasi, Armon tog'i, Chuqot yarim oroli, Evensk (Magadan oblastida), Sayan tog'lari (Sayon -tuvin xalqi) Tatarsk (G'arbiy Sibirda) va boshqalar.

Rossiya Federatsiyasidagi Tuva Respublikasining poytaxti qizil shaxri

va G`arbiy Sibirdagi Barbara dashti qizil va barbara qabilalar nomi bilan bog`liq. Jaxon xaritasida xam bunday nomlar juda ko`p. Amerikadagi dare, ko`l, shtat va shaxarlarning aksariyati indeets qabilalarining nomi bilan ataladi. Masalan Eri, Guron, Ayova, Apalachi Dalaver, Boston, Karib dengizi Karib qabilasi nomidan olingan. Gondvana -geologik tarixda ulkan materik- Xindistondagi gandlar yeri demakdir.

Shaxarlarda ham xalqlar nomi bilan ataluvchi ko`chalar bor. Masalan: Bol`shaya Gruzinskaya, Tatarskaya, Ariyanskaya (Moskvada) Dagistan ko`chasi (Toshkentda) va boshqalar. Xalqlar nomidan yasalgan mamlakat nomlari juda ko`p. Shved-Shvetsiya, Dan-Daniya, Grek-Gretsiya, Ispan-Ispaniya, Afg`on-Afg`oniston, Tojik-Tojikiston va boshqalar.

Sobik SSSR tarkibigan kirgan va xozir mustaqil bo`lgan deyarli Respublikalar nomi xalq nomidan oligan. Kirg`iz-Kirg`iziston, qozoq-Qozog`iston, Tatar-Tatariston va boshqalar.

Aksincha, mamlakat nomi xalqqa o`tgan hollar ham bo`ladi. Braziliya-Braziliyaliklar, Ekvador-ekvadorliklar, Kanada-kanadaliklar va boshqalar.

S.S. Gubaevaning aniqlashicha, Farg`ona vodiysida turk tilidan kelib chiqqan geografik nomlarni 10-70 % qabilalar nomini tashkil qiladi. Shu narsani qayd qilish kerakki geografik nomlar erdamida biror xududda yashagan etnik guruhning o`tmishda o`troq ko`chmancha hayot kechirganligini ham bilib olish mumkin. Ilmiy tadqiqotlarning ko`rsatishicha, o`troq va ko`chmanchi xalqlar joylarga nom berishda farqlanar ekan. Bordi-yu, aholi o`tiroq bo`lsa joyning xususiyatiga qarab nomlanar ekan. Aksincha, aholi ko`chmanchi bo`lsa, joyini o`z urug` va qabilalarining ismi bilan atar ekan. Axolining ijtimoiy ahvolidan kelib

chiqqan nomlar.

Bu nomlar ma`lum hududda yashovchi aholining ijtimoiy strukturasi ifoda etadi. Bunday nomlar O`zbekistonning deyarli xamma qishloq va shaharlarida uchraydi. Biroq ular keyinchalik boshqa (yangi) nomlar bilan almashtirilgan. Misol “Devonxona”, “Qalandarxona”, “Darveshxona” va boshqalarning ko`rsatish mumkin.

Aholining ijtimoiy ahvolini ifodalovchi nomlar boshqa mamlakatlar xududida ham keng tarqalgan. Masalan: Belorusiyada “Besxlebechi” (nonsiz), Koroedi (Po`stloqxo`rlar), “Moxoedi” (“Moxxo`rlar”) va boshqalar.

Shu bilan birga aristokratik toponimlar ham mavjuddir. Masalan: Rossiyaning ko`p shaharlarida Dvoryanlar ko`chasi, Meshanlar ko`chasi va boshqalar bo`lgan, ular sobiq sovet davrida yangi nomlar bilan almashtirilgan. Shaxslarning ism familiyalariga qo`yilgan nomlar.

Dunyo va sayyoralar xaritalarida bunday nomlar juda ko`p tarqalgan. Bularning ko`pchiligi jasur sayyoh va safarchilarning, olim va dengizchilarning, shoir va ezuvchilarning, davlat va jamiyat arboblarning nomlariga qo`yilgan. Masalan: Barents dengizi, Laptevlar dengizi, Chelyuskin burni, Kuk bo`g`ozi, Gudzon darsi, Tasmaniya oroli, Mikluxa-Maklay qirg`og`i, Xabarovsk shaxri, Rashidov tumani, Beruniy shaxri, Vashington shaxri va boshqalar.

Atoqli rus geografi va etnografi akademik D.N. Anuchin nomiga atalgan muzlik, burun, ko`l va orol bor. Okeanograf va kartograf akademik Yu.M, Shokol`skiy nomi bilan bir necha orol, muzlik, tog` va bo`g`ozlarga berilgan. Antarktidadagi 1961 yili kashf etilgan bir tog`ga qozoq geografi Chukan Valixanovning nomi qo`yilgan. Oy sirtidagi kraterlarga Beruniy,

Ulug`bek, Merkuriydagi krater, tog`lik va tekisliklarga Pushkin, Lermontov, Tolstoy, Chexov, Shevchenko, Repin kabi mashxur shaxslarning nomlari berilgan.

Oltoyda ikki cho`qqi Rerix nomi bilan atalgan. Boliviya davlatining nomi qahramon Simon Boliver nomi bilan ataladi. Angliya qirolichasi Viktoriya nomidagi orol, ko`l, sharshara va boshqa geografik ob`ektlar uchraydi. Xaritalarda mashxur shaxslar bilan bir qatorda mashxur qaroqchilar va bosqinchilarning nomlari xam uchraydi. Masalan Dreyk bug`ozi (mashxur dengiz qaroqchisi).

Turkiston tog`larida mashxur kartashunos va g`orshunos olimlar G.A. Maksimovich, N.A. Gvazdenskiy, O.Yu.Poslavskaya nomlari bilan ataluvchi g`orlar bor. Qashqadaryo viloyatida esa ikkita g`or Amir Temur nomi bilan ataladi.

Rossiya familiyalari oxiriga “-ovka”, “-evka”, “-o” suffikslari qo`yilib kelib chiqqan minglab geografik nomlar uchraydi. Masalan Ivanovka, Petrovka, Barisovka, Ivanovo, bulardan tashqari ismlarni qisqartirishdan kelib chiqqan nomlar xam mavjud. Misol: Mixno (Mixail), Grixno (Grigoriy) va boshkalar. Afsona va diniy nomlar.

Dunyo xaritasida afsonaviy va diniy nomlar ham ko`plab uchraydi. Bunga misol qilib o`sh shahri yaqinidagi Taxti Sulaymon, Amudaredagi Duldul otlagan (Xazrati Alining uchar ota daryoning shu joyidan sakrab o`tgan emish), Kofirnixon daresi bo`yidagi (Tojikistondagi Xonaqa qishlog`i enidagi) kichik poyi duldul, Ohargarondagi Alining qoyasi, Sirdaredagi Farxod qoyasi, Farg`ona vodiysidagi Shohimardon, Toshkentdagi Kaykovus arig`i, Turkmaniston chegarasidagi Zulfiqor yulagi (Alining qilichi chopgan dara) Shri-Lankadagi Odamato cho`qqisi (go`e

odam Alayxissalom o`sha erda osmondan tushgan emish) va boshqalarni ko`rsatish mumkin. Bularning barchasi afsonaviy nomlar ekanligi ko`rinib turibdi.

Bulardan tarqari Rossiyaning Pskov oblastida Velikiy Luni degan shaxar bor. Afsonalarga ko`ra, Luki Velikiy qandaydir baxodir (qaroqchi) bo`lgan. Aslida bu shaxar XII asrlarda barpo etilgan bo`lib, shu joydan Lovati daresi oqib o`tib, ajoyib burilish xosil qiladi. (“Luki”-“daryo burilish” degan ma`noni bildiradi). Bunday nom boshqa joylarda ham, ya`ni kaerda katta burilish hosil qilgan bo`lsa uchratiladi.

Dune xaritasida turli dinlar bayrami, avlie va muqaddas shaxslar sharafiga qo`yilgan joy nomlari ham uchraydi. Ular xaritalarda aksari San, Sent, Svyatoy so`zlari bilan nomlangan. San-Marino, San-Toms, San-Frantsisko, San-Sal`vador, Santo-Domingo, Santo-Krus, Santyago, Svetoya elene, Svyatoy Lavrentiya, Svyatoy, Nos kabilar.

Rossiyada tsirkovlar faoliyati bilan bog`liq nomlar ham bor. (Vozdvijenskaya, Pyatnitskoe, Rojdestvenno).

Zangiota, Yalong`ochbuva, Ko`ylukq, Iskandariya (Misr) kabi nomlarda tarixiy shaxslarning izi bor. Masalan: Zangiota-Axmad Yassaviyning zanjiiy (xabash) muridi, Yalangochbuva asrimizning 20-yillarigacha devonachilik qilgan bangi G`ovlie”, Iskandar (Misr - Makedoniyalik Aleksandr).

Afsonaviy nomlar orasida xayoliy va faroziy nomlar , ya`ni biror voqea eki mish-mish gaplar sababli bor deb taxmin qilingan, aslida mutlaqo bo`lmagan joylarning nomlari ham uchraydi. Ya`juz-Ma`mun eri, Saddi Iskandar, Kuxikof, Sannikov yeri va hokazo.

Afsonaviy Atlantida orolini ba`zi birovlar okeanda desa, boshqalar

Gretsiya atrofida bo`lsa kerak deydi, ammo xanuz aniqlangani yo`q. G`aroyib nomlar.

Dunyo xaritasida hazilnoma, kulguli yoki vahimali nomlar ham uchraydi. Masalan Angliyada - Raxming kelsin, “So`qir kuevlar”, “qurbaqalar”, “Kalamushqal`a”, “Zo`r muxabbat”, “Ko`rinmay qoldi”, “Pyanistaning tavbasi” nomli shaxarlar, Italiya va uralda- It g`ori, Amerikada “Ajal vodiysi”, Eronda “Dashti noumid” kabi nomlar bor.

Bunday nomlar O`zbekistonda ham topiladi. Borsakelmas, Darvesh, Labbay tog`i (Namanganda), Charchamang (Shaxrisabzda) Jangchiqar (Zarafshon vodiysida), Cho`ntak qishloq (Andijon) Ko`k do`ppi (Farg`ona viloyatida), Bo`g`ozterak, kelinchak, Moxovtovuq, Og`zikeng, Chopon tiqqan, qorko`mdi, Gadoytopmas va boshqalar. Qoraqapog`istonda: Eshkiulgech, (Echki o`lgan), Butenkul`, (Boshqa ko`l) Ashawl (Och qishloq), Uzuaul (Xo`kiz qishloq) va boshqalar.

Bunday nomlar eshtilishidan g`alati-g`aroyib bo`lib tuyulsada, har birining o`z tarixi, o`z tafsiloti bor, albatta. Migratsion nomlar.

Bu geografik nomlarning bir hududdan ikkinchi hududga olib kelinishi. Bunday jarayon ikki yo`l bilan sodir bo`ladi.

1). Aholining migratsiyasi natijasida eski nomlar to`g`ridan to`g`ri yangi xududlarga ko`chirilishi. Bunga Amerika materigi yaxshi misol bo`la oladi. Bu erda evropadan ko`chirib kelingan minglab geografik nomlar bor. Ayniqsa AQSh da Angliya, Shotlandiya, Irlandiya tponimlari uchratiladi. London, Boston, N`yu-London, Kembridj, Oksford, Grinvich va boshqalar. Bunday nomlar turli shtatlarda bir necha marta qaytariladi. Frantsiyadan-Orlean, Parij, Lion, Moskva nomi Ayxado, Vemant, Michigan, Ogayo, Texas, Odessa nomi esa Vashington, Delover, Missuriy, N`yu-York, Texas,

Florida shtatlarida ko`plab uchratiladi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa Ispaniya, Portugaliyadan ko`chirilib kelingan nomlar uchratiladi. Sevil`ya, Volensiya, Barselona, Granada, S`erra-Nevada va boshqalar. Okeaniyada Afrikadan ko`chirilib kelingan nomlar uchratiladi. Masalan yangi Gvineya.

Bunday nomlar Turkistonda ham kuzatiladi. Masalan bu hududda 10 dan ortiq Samarkand nomi bo`lgan. Bulardan bittasi Farqona vodiysida Isfara vodiysidir, So`g`dni (qashqadare, Zarafshon) arablar bosib olganidan keyin o`ag` yilda So`g`diylar Farg`ona podshosi Alatarga elchi yuborib boshpana so`raydi, lekin u bermaydi. So`ngra ular Isfara vodiysida joylashishga majbur bo`ladilar. Joyni Samarkandak deb ataydilar, hozir qirgizlar uni Samarqandlik deb ataydilar.

2). Bir xududni ikkinchi xududga o`xshatish natijasida kelib chiqqan nomlar. Bunda joyning landshaftiga, ko`rinishiga, Oxangdorligiga asosiy e`tibor berilgan. Masalan Yevropadagi Shveytsariya toponimi Osiyoda, Amerikada, Yangi Zelandiyada uchratiladi. Shveytsariyada chiqadigan bir jurnalda keltirilishicha, bu nom xushmanzara landshaftlar tarqalgan joylarda 270 marta yaqin uchratiladi. Shulardan yarmi Markaziy Yevropadir.

Venesuella mamlakatning nomi Venetsiya nomidan olingan bo`lib, kichik Venetsiya ma`nosini beradi. Mazkur nom XV asrning oxirlarida ispanlar tomonidan berilgan. Ular Janubiy Amerika qirg`og`ida uylari svoylarda qurilgan bir xushmanzara, axoli punkitini uchratib, Venetsiyaga o`xshatishgan va shu nomni berishgan. Keyinchalik butun mamlakatni shu nom bilan atalgan.

Polyak xaritashunoslarining ma`lumotiga ko`ra, Pol`sha xaritasida Koreya nomi-19, Amerika-18, Vengriya-1, Abissiniya-9, Kanada-9, Braziliya-7, Italiya-3, Bolgariya-1, Venetsiya –7, Kiev-4, Vavilon-2 marta

qaytariladi va migratsiya nomlari xisoblanadi. Biroq xaritalarda bir-biriga juda o`xshash, boshqa hududlardan ko`chirilmagan geografik nomlar ham uchratiladi. Masalan, Rossiyaning Vologdon oblastida Buxoro degan joy bor. Buning O`zbekistondagi Buxoro shaxriga xech aloqasi yo`q. Rus tilining ba`zi dialektikalarida “Buxara” so`zi “bo`sh er” ma`nosini beradi. Xato nomlar.

Dunyo xaritasida mazmuniga mos kelmaydigan haqiqatga asoslanmagan geografik nomlar ham uchrab turadi. Masalan Tinch okeani nomi xatodir. Nomi “Tinch” bo`lgani bilan o`zi juda katta to`lqinlar, bo`ronlar makoni. Shoximardon?. Xazrat Alini Shohimardon–“Erlar shohi” deyishgan. Ammao uning bu yerga nima daxli bor-uning qabri Iroqda. Osiyo deb, dastlab o`rta dengizning sharqiy soxillari tushunilgan. Bu nom asta-sekin umumlashib, Yaponiyagacha tarqalgan. Osie deganlarida asos bor. Osie- “asu”, umuman “sharq”, “kun chikar” degan so`z “Tinch” okean deb atalishini sababi bor. Magellan okeanida suzib yurganda kuchli to`lqinlar, bo`ronlar bo`lmagan. Shohimardon esa afsona.

Professor X. Xasanovning (1978 y.) fikricha geografiya tarixida eng xato nom “Amerika” sababi 1). Maxalliy tub aholi o`z yurtini bunday deb atamagan. 2). Agar Xristafor Kolumbning 1492 yilda kashf etganligi tan olinsa qit`aning nomi Kolumbika bo`lishi kerak edi. Biroq bu erlarga Kolumdan ilgari sayex va savdogarlar borib kelgani ma`lum. Kolumbning o`zi ham yanglishib, “Xindistonning bir qismiga kelib qoldim” deb o`ylagan. 3) Bu kit`ani Amerigo Vespuchi xam kashf etmagan. U Braziliyaning sharqiy soxillarini aylangan. U faqat 2 betlik maktub ezgan va maktubda noma`lum erlarga borganligini baen qilgan. Uning maktubi

qoʻldan-qoʻlga oʻtib, xatto xaritalarga tushib, gʻarbiy qitʼa Amerika-yeri keyinchalik Amerika boʻlib ketgan boʻlishi mumkin, ekin bu qitʼa dengizchi Kabotning 1497-yilgi ekspeditsiyasiga sarmoya bergan ingliz boyvachchasi Richard Amerikaning ismi bilan atalgan boʻlishi mumkin. Uni yangi qitʼa ekin Gʻarbiy qitʼa deb atash oʻrinliroq boʻlardimi.

Xozirgi zamon olimlarining fikricha Amerikaning tub aholisi indeetslar boʻlganligini eʼtiborga olib uni “Indo-Amerika” deyish oʻrinliroq boʻlsa kerak. Yangi qitʼani Amerika deb 1707-yilda Lotoringiyalik geograf Valʼdzegemyuller atagan. Lekin 1708 -yilgacha faqat Janubiy Amerika shu nom bilan atalgan. Merkater degan xaritashunos tuzgan xaritada ikki materik ham shu nom bilan tushirilgan.

Koloniya zulmidan ozod bulgan mamlakatlarda xam bunday jaraen sodir boʻlgan. Masalan: Gana (Sobiq Oltin qirgʻoq), Shri-Lanka (Sobiq Tseylon), Zambiya (Sobiq Rodeziya), Burkina Faso Sobiq yukori Volʼta) va boshqalar.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng sobiq SSSR davrida qoʻyilgan koʻplab nomlar oʻzgartirilmoqda. Masalan Oʻzbekiston togʻlaridagi eng baland nuqtaga KPSS ning XII syʼezdi nomi qoʻyilgan edi, uni tarixiy nomi Xazrati Sulton deb atala boshlandi. Shu nom bilan birga yangi nomlar qoʻyila boshlandi. Misol Mustaqillik maydoni, Istiqlol mahallasi, Birodorlik dahasi, Erkinlik koʻchasi, Matbuotchilar koʻchasi, Fidoyilar xiyoboni.

Geografik nomlarning kelib chiqishining boshqa usullari bor.

- 1) Nomlarning oldiga koʻmakchi (predlog) “pri”, “oldi”, “orti”, “za” qoʻshilib yangi geografik nomlar kelib chikkan. Kavkazorti (Zakavkazʼe), Baykalorti (Zabaykale) Iliorti (Zaliy), Oloyorti

(Zaolay), Kaspiy orti pasttekisligi va boshqalar. Bu unchalik o`rinli emas. Masalan Kavkazorti toponimi Rossiya uchun to`g`ri, lekin bu mamlakatlarda yashovchilar uchun buni qo`llash noto`g`ri.

- 2) Yuqorida kal`ka tushunchasi ya`ni tarjima qilingan, ikki tilda, ikki xil ataluvchi nomlar xaqida to`xtalib o`tgan edik. Misol. Qorasuv-Siexrud, qizilsuv-Suxrob, Oqsuv-Belie vodi va boshqalar.
- 3) Juft geografik nomlar ham bor. Bular bir geografik ob`ektiv, ikkinchisidan farqini ko`rsatishi uchun foydalaniladi. Masalan: Kattasuv-Kichiksuv, Oqsuv-qorasuv, qoraqum-qizilqum, Koratoq-Oqtog`
- 4) Adabiy zavqlantiruvchi nomlar xam mavjud. “Moviy Dunay”, “Moviy Kubbo”.
- 5) Xususiyatlarini ko`rsatuvchi nomlar ham uchraydi. Sho`rko`l, Chuqursoy, Bodomsoy, Mineral suv va boshqalar.
- 6) Geografik ob`ektlarning qayerda joylashganligini ko`rsatuvchi nomlar bor. Rostov-na-Donu, Petropavlovsk-Kamchatsk
- 7) Geografik ob`ektga noto`g`ri ma`no beruvchi nomlar kam bo`lsada uchraydi. Masalan “Xotin ko`prik”. Bu so`zni xotinlarga xech aloqasi yo`q. Eski o`zbek tilida “tosh”ni ham xotin deb atashgan. Turkmanistondagi “Taxtabazar”, buning xam “taxta” so`ziga aloqasi yo`q. Bozor joylashgan joy tekis bo`lganligi uchun bu so`z qo`llanilgan.
- 8) Geografik nomning kelib chiqishiga sabab bo`lgan ob`ekt hozir butunlash yo`qolib ketgan, biroq nom qolgan. Masalan: Saratov shaxri. Bu nom Saritau nomidan olingan, tog` esa yo`q bo`lib ketgan, nomi esa saqlanib qolgan.

Xar bir fan ni, shu jumladan toponimikani ham puxta urganish ushun uning atama va tushunshalarini bilish zarur. Toponimikaning o'ziga hos atama va tushunshalari mavjud. Bularning eng muhimlari quyidagilar.

Abreviatsiya —geografik nomlarning qisqartirilgan shakli XXR, AQSh, MAR, BAM, Donbas, Kuzbas, RF va boshlalar.

Antonim nomlar —bir —biriga teskari manoli geografik nomlar Oqdaryo, Qoradaryo, Kungay Olatog'i, Terskay Olatog'i, Yuqori Shirshiq, quyi Shirshiq, Oqtog', Qoratog' va boshqalar.

Antroponim nomlar — kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi, qalamidan olingan nomlar Navoiy shahri Beruniy tumani, Iskandarkul, Vashington shahri, Suxe —Bator, Pushkino shahri, Amir Temur ko'chasi.

Arealli nomlar —bir xil qo'shimsha yoki topoterminlar ishtirokida yasalgan geografik nomlar joylashgan xududdagi toponimlar kent, tepa, qurg'on atamalari ishtirokida yasalgan nomlar tarqalgan xudud. Masalan, Toshkent viloyatida kent atamasi yordamida yasalgan nomlar ko'p Alimkent, G'azalkent, Zarkent, Toshkent va boshqalar. Birlamshi va ikkilamshi nomlar. Birlamshi nomlar asl nomlar. Masalan, Shirshiq daryosi, Ikkilamshi nomlar nom ko'shishidan hosil bo'ladi. Shirshio' shahri, nom daryo nomidan shaharga ko'shgan.

Gibrid nomlar— turli qismlari turli tildagi so'zlardan iborat bo'lgan murakkab geografik nomlar Kuxitantog', Gugurtog',

Gidronim —okean, dengiz, kul, daryo, soy, bulol, ludullarning nomi Sirdaryo, Ushquduq, Qorako'l, Kuvasoy, Volga, Shirshiq va boshqalar.

Detoponimizatsiya — geografik nomlarning terminlarga oddiy turdosh otlarga aylanishi Geyzer bulog'i nomidan geyzer termini, Vulkan oroli

nomidan vulkon atamasi, Karst rayoni nomidan karst termini hosil bo'lgan va h.k.

Dromonim — yo'llar bilan bog'liq nomlar Yangiyo'l, Buyuk ipak yo'li. Toshkent —Termiz yo'li.

İndikator (toponimikada) toponimlarni hosil qiluvshi mahalliy geografik terminlar qum, tepa, qurish, suv, kent va boshqalar.

Makrotoponimlar —Ko'pshilikka malum **bo'lgan** tez —tez tilga olinadigan yirik nomlar Evropa, Osiyo, Tyanshan, Tinch okeani, Sibir va boshqalar.

Mikrotoponimlar--mayda geografik nomlar mahalla, ko'sha, mavze, bekat, guzar nomlari.

Memorial nomlar — buyuk kishilar nomi yirik voqealar bilan bog'liq bo'lgan nomlar Navoiy, Beruniy, Vashington, Pushkin, Magellan, G'alaba shuqqisi va boshqalar.

Metafora nomlar — ko'shma manoda ishlatiladigan tarifiy uqshagma nomlar Odamtosh, Quytosh, Qirqqiz, Temir darvoza, Jinko'sha.

Metafora atamalar (terminlar)' bug'oz, buyin, og'iz, etak va boshqalar. Oykonimlar —aholi yashaydigan joylar (shahar, qishloq, ovul) nomlari Toshkent, Qibray, Zarkent, Qutonovul va boshqalar.

Oronimlar —er yuzasi reliefi shakllari, (tog', tizma, vodiy, tekislik, qirlar) nomlari Himolay, Tyanshan, Pomir, Shotqol, Farg'ona vodiysi.

Spelionim —g'orlar, ungurlarning nomi Qirqtog', Qung'ir, Odamtosh, Mamont g'ori va boshqalar.

Toponim —xususiy geografik nomlar lotinsha toros —joy, onoma — ism, nom so'zlaridan olingan.

Toponom —geografik nomlardan paydo bo'lgan yangi so'zlar, turdosh otlar doka, tyul, boston, balonya paplin, krepdeshin va boshqalar.

Toponimiya — malum xududdagi joy nomlari yig'indisi. Masalan, Toshkent viloyatidagi barsha joy nomlari Toshkent viloyati toponimiyasi deyiladi.

Topotermi — joy nomlarini hosil qiluvchi terminlar (atamalar). Masalan, daryo, soy, tepa, qorg'on, keng, obod, burn, grad, siti va boshqalar. Kattaqorg'on, Oqsoy, G'azalkent, Yangiobod.

Topoformat—Geografik nomlar hosil bo'lishida ishtirok etadigan lekin o'zi muayyan manoni anglatmaydigan qo'shimsha va suffikslar. Masalan, Shilonzor, Mistarlik, Xizmatshi, Oxangaron, Orsk, Biyxem, Satino va boshqalardagi zor, gar, shi, garon, sk, xem, o.

Transkripsiya —geografik nomlarning to'g'ri yozilishi.

Ekzonim —yozilishi va talaffuzi odat (traditsion) bo'lib qo'lgan geografik nomlar.

Etnonim nomlar — xalqlar, qabilalar, urug'lar, nomidan kelib shiqqan geografik nomlar Malik, Buka, Turkqishlo1, Sirg'ali, Tojikiston.

Geografik nomlardan turli xil oddiy so'zlar — atamalar, turdosh otlar vujudga keladigan hollar tez— tez ushrab turadi. Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, tabiiy geografik obektlar nomlaridan hosil bo'lgan yangi suzlar toponomlar deyiladi. Toponimlar barsha xalqlar tillarida ham ushraydi. Bir qancha tabiiy geografik atamalar (terminlar) geografik nomlardan olingan vulkon Urta dengizdagi Vulkan oroli nomidan geyzer Islandiyadagi Geyzer deb ataluvshi buloq nomidan karst Bolqan yarim orolidagi Karst platosi nomidan Meandra Turkiyadagi Menderes daryosi nomidan delta Nil daryosi quyiladigan delta degan joy nomidan kelib shiqqan. Bularda gsografik nomlar geografik terminlarga aylangan. Bazan geografik nomlarda butunlay boshqa manodagi so'zlar paydo bo'ladi.

Bolonya, jersi, boston, krepdsship, paplin matolari nomlari joy nomlaridan iborat. Bolonya va Panlin Italiyadagi shaharlar Jersi — Frantsiya

shimolidagi shahar krepdeshin — Xitoy matosi (krep —mato, shin —Shin) va boshqalar. Panama (bosh kiyim) nomi Panama davlati nomidan Olimpiada olimika Gretsiyadagi Olimp tog'i nomidan olingan. Garbiy Evropadagi Alp tog'lari nomidan alpenizm, alpenist, alp ugloqlari alp burmalanishi alpid kabi so'zlar olingan.

Ayrim geologik davrlar burmalanishlar, tabiiy hodisalar nomlari ham joy nomlaridan olingan. Geologik davrlardan Kembriy Angliyadagi Uels viloyatining qadimiy nomi Ordovik va Silur Angliya janubida yashaydigan qabilalar nomi Devon Angliyadagi graflik Perm, Urallagi shahar nomi, Yura Frantsiyadagi tog'lar nomi, Kaledon Shotlandiyaning lotinsha nomi, Gertsin Markaziy Yevropadagi tog'lar nomi va h.k. Gondvana Hindistondagi qond qabilasi va Vand rayoni nomidan olingan Lavrosiyo Kanadadagi Lavrentiya va Osiyo nomlaridan kelib shiqqan.. Bir qancha kimyoviy elementlar joy nomlari bilan ataladi frantsiy, skandiy, germaniy, evropiy, poloniy, kaliforniy. Kunshilik minerallarning nomi ham topilgan joyi nomi bilan ataladi azorit, alebasger, amozonit, arogonit, birit, gavanit, labrodorit, tanzanit va boshqalar. Kishik sayyoralar — asteroidlardan ushtasi Ukraina, Volga, Sumianna (Sumi shahar nomidan) deb ataladi.

Ko'pshilik ulug' shaxslarning ismi va taxalluslari ham ular tug'ilgan yoki yashagan joylar nomlaridan olingan Muxammad al Xorazmiy, Axmad al Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Axmad Yassaviy, Dexlaviy, Jomiy, Sheroziy, Xujandiy, Rumi, Maxmud Torobiy, Muxammad Narshaxiy, Rudakiy va boshqalar.

Juda ko'p kemalarga shahar, daryo va boshqa geografik obektlar nomlari qo'yilgan «Volga», «Vladivostok», «Toshkent», «Gruziya», «Neva» va boshqalar. Avtomobillar, sovuqxonalar, Kir yuvish mashinalari, radiopriyomik va boshqalarga ham joy nomlari qo'yilgan. Bulardan boshqa ham joy nomlari bilan ataladigan narsalar ko'p. O'zbek tilida joy nomlariga

bog'liq ravishda vujudga kelgan so'zlar juda ko'p. Shunonshi makkajuxori, quqon Yuxori, hisori quy angori eshki, qorako'l qo'yi, shibirg'oni uzumi, quram gurushi, shotut (shom tuti), balx tut, jilon jiya (Erondagi Gilon shahri qirimizka uzum (qirmizi «qizg'ish» so'zidan), Kishmish (Eronga-qara) Karashli Keshm oroli nomidan), shust dupi, baronas, doka, tivit (Tibet so'zidan), irok duppi, iroli sovun (İro1 nomidan) va h.k.

Mamlakatimizda Mahalliy shevalarda joy nomlaridan hosil bo'lgan juda ko'p so'zlar mavjud Ularni o'rganish siz talabalar vazifangiz.

II. BOB. Geografik nomlar manosi va toponimik malumotlardan foydalanish

2.1. Geografik nomlar manosi haqida

Geografik nomlar juda ko'p ekanligi haqida yuqorida aytgan edik. Joy nomlari qancha bo'lsa ularning kelib shiqishi tarixi manosi ham shunsha ko'p. Geografik nomlar qaysi haq tilida bo'lmasin bazi birlarining manosini osongina tushunsha bo'ladi bazi nomlar murakkab bo'lib tushunish qiyin eki butunlay tushunarsizdir. Bazi bir nomlar manosi tushunarli bo'lib ko'rinsa ham lekin ansha murakkab bo'ladi.

O'zbek tilidagi rang ko'rsatkishlar- ko'ra, oq, ko'k, sariq so'zlari toponimlar tarkibida kamdan-kam hollarda shu rang manosida qo'llaniladi. Masalan, Qora so'zining yomon, er, sharpa, past, shimol, qorsiz manolari mavjud. Joy nomi tarkibida kelganda ham u ushunday manolarda ishlatilishi mumkin. Masalan, Qora dengiz «Shimoldagi dengiz», Qora tog' «Pas tog'», «Qorsiz tog'», Qorasuv »Sizot suv«, «Buloq suvi» manolarini anglatadi. Toponimlar tarkibidagi «Oq» so'zi ham oqni anglatmaydi. Shunonshi

Oqtog'- qorli tog', baland tog', kesak tog', oqtepa boyonlar tepasi, oqsuyaklar tepasi, yorug' tepa manolarini oqqum o'simlik bilan mustahkamlanmagan» ko'shma qumni anglatadi.

Shunga uqshash toylar tarkibida ushraydigan taxta, xotin, oydin, ayron kabi so'zlar boshqa manolarda qo'llaniladi. Masalan, «Taxtabozor» Tekis erdagi bozor, «Xotin ko'pri» tot ko'pri, «Oydin ko'l» toza suvli, oshiq ko'l «Ayronko'l» loyqa suvli ko'l va boshqalar.

Toponimist olimlar joy nomlarini o'rganib turli mamlakatlardagi ko'plab nomlarning paydo bo'lishi, manosi, qanday o'zgarganligini aniqlab yozgan bo'lsalar xam kelib shiqishi, manosi, hatto qaysi tilda ekanligi nomalum bo'lgan geografik nomlar juda ko'p. Shularni hisobga olib X.Hasanov (1985) geografik nomlarni ayon nomlar, yani qaysi tildagiligi manosi nima ushun shunday atalganligi o'zidan anglatib turadigan nomlarga va noaniq nomlar yani qaysi tildagiligi, manosi, nega shunday atalgani aniqlanmagan nomlarga ajratadi. Ayirtov, Bogishamol, Jarari1, Shukursoy, Yakkasaroy, Amerika, Kolumbiya, Volgograd, Avstraliya, Kumishkon, Oltintopkan, Yangibod, Tinch okean, Issikkul kabi pomlar manosi. ayon nomlardir. Ayrim joy nomlarining geografik urni, ayrim xususiyatlari nimning uzidan anglatib turadi Kavkazorti, Janubiy Olamushuk, Urta Shirshik, Rostov Don, Janubiy Xitoy dengizi, Zadaryo, Unguzorti kirliri va boshkalar. Lekin Ladoga, Fargona, Romiton, Gijduvon, Taymir va boshka nomlar manosi unsha anik emas.

2.2.Toponimlarning paydo bolishi va hususiyatiga kura turlari

Fanlardagi klasifikatsiya masalasi umum xal qilinadigan muammolardan biri hisoblanadi. Bu narsa toponimika fani uchun ham xosdir. Klassifikatsiya tuzilishda u oddiy va mantiqiy bo'lishi kerak. Umuman fanning hamma talablariga javob beruvchi klassifikatsiya ishlab

chiqish mumkin emas. Masalan, toponimika fani uchun ishlangan ko'pgina klassifikatsiyalarda turli geografik ob'ektlar bir qatorga qo'yiladi. Masalan, darelar, tog'lar, shaharlar va boshqalar.

Mashhur rus olimi V.P. Semenov Tyan0Shanskiy (1924) axoli yashaydigan nomlarni quyidagi kategoriyalarga bo'lgan. Kishilar nomi, familiyasi va laqabi.

Diniy bayramlardan (Voskresensk, Sretenskoe):Tarixiy nomlardan (Rastislavl', Izyaslavl'):Budparastlikdan (Yarilino, Petrunova, Pribat'e pole):qadimiy qabilalar nomidan (Radomae, Radomka):Voqea va shaxslarning sharafiga berilgan nomlar,

Joyning tipik, geografik manzarasidan olingan nomlar.

I. E.M. Murzaevning (1982) fikricha, geografik nomlarni, geografik ob'ektlarni nomlariga qarab, bo'lish eng oddiydir. Oronoimlar rel'ef elementlari va formasi: tog'lar, balandliklar, cho'qqilar, tekisliklar, botiqlar, vodiylar va boshqalar.Gidronimlar-darelar, buloqlar, ko'llar, dengizlar, okeanlar, suv omborlari, kanallar. o'simliklar turlari-o'rmonlar, bog'lar, dashtlar va boshqalar.Axoli yashaydigan joylar nomi-shaxarlar, qishloqlar, jamoa xo'jaliklari va boshqalar.

Shahar va qishloqlardagi ko'chalar, maydonlar va boshqalar.

Shu guruxga geografik ob'ektlarning asosiy qismi kiradi, biroq xammasi emas. Shuni qayd qilish kerakki, darelar nomi bilan tog'lar, qishloqlar ataladi, eki aksincha: Masalan: Pskom nomi bilan dare, tog' va qishloq ataladi.

Ba'zi klassifikatsiyalarda nomning turdosh otlari va avtonomlarga tegishli bo'lishiga qarab bo'linadi.Rel'efning qandaydir belgisiga qarab berilgan nomlar` Pyatigorsk shaxri, Zubtsi ay -Petri. Suv ob'ektlarining

belgilariga qarab berilgan nomlar. Qoradaryo, Qizilsuv, Kislovodsk, Jeleznovodsk, Oltiariq tumani va boshqalar.

Fitotoponimlar. Poselok, Lesnoy, Zeleniy Bar, (Minsk oblasti), Dubno, Lipetsk, Karaganda, Taldiqo`rg`on, Guliston, Alma-Ata va boshqalar. Zootoponimlar: Medvej`egorsk (Kareliya), Ming qush (Qirg`iziston), Moralboshi (Sin`tszyan), Olengorsk (Murmansk oblasti) va boshqalar. Antrotoponimlar`Ishlab chiqarish toponimlari: Lesogorsk (Uzoq Sharq) Mednogorsk (Orenburg), Nebit-Dag, Neftyanie Kamni, Temirtau, Gazli, Kentau, Toshko`mir, Paxtakor va boshqalar. Savdo transport nomlar. Bu nomlar ju qadimdan kelib chiqqan, yangi yo`llar, portlar qurilishi bilan ularning soni ortib bormoqda. qorasuvbozor (qrim) Bazarniy (Saratov), Navi Pazar (Yugoslaviya, Bolgariya), Buyuk ipak yo`li, Port-Said va boshqalar. Ijtimoiy nomlar. Kutniki qishlog`i (Belorus-xech narsa yo`q dexqonlar), Besxlebchi, Erksiz (Nevol`no`y), qirg`og`i (Afrika). Etnotoponimlar. Ideologik nomlar: avlielar, din bayramlari, Arxangel`sk, Voskresensk, Spaskoe, Santo-Domingo, Sank-Peterburg, Bogdo-Ula (bogda-avlie), Okmozor (Turkmaniston) va boshqalar.

Boshqa xududlardan olib kelingan va o`zgartirilgan nomlar.

Dunyo xaritasida ular juda ko`pdir. Filippin Respublikasi-Ispan ekspeditsiyasi (1742-1747-yy.) komandiri R.A. Vil`yalovos tomonidan ispan Filip II nomiga qo`yilgan. Vellington nomiga qo`yilgan. (Velikobritaniyaning pr`emer-ministri), Everest (Xindiston geodeziya qo`mitasining raisi), Sin`tszyan-yangi territoriya, Xitoy tarkibiga 1778-1779 yillar kiritilgan, eski nomi Dixua. Tarixiy printsipga asoslangan nomlar.

Geografik nomlar ma`lum tarixiy davrlarda kelib chiqqan. O`rta

dengiz atrofi, Xindiston, Turkistonda ming yillar oldinga nomlar saqlangan. Arktika va Antarktidadagi nomlar esa juda eshdir. Har qaysi tarixiy davrni toponimiyada o`qish mumkin. XVIII asrning oxirlarida Rossiyaning ko`p shaharlarida nomning oxirida grekcha-“Pol`” ni (shaxar) ko`rinishidan kelib chiqqan. Masalan: Simferopol`, Sevastopol`, Staropol`, Sobiq SSSR davrida esa “gorsk” (Magnitogorsk, Muvet`egorsk).

Har qanday joy nomlarini stratigrafik ustungan joylashtirish mumkin. Bunday ustunlarning eng ostida xali aniqlanmagan qatlam bo`ladi. Bular juda qadim davrdan kelib chiqqan. Tillarga mansub nomlar.

Geografik nomlarni o`rganishda birinchi navbatda ular qaysi tilga mansubligiga e`tibor beriladi. Xozir dunyoda 3 mingdan ortiq tillar borligi ma`lum bo`lgan.

Tilshunoslik fanidan ma`lumki tillar, oilalar, guruhlar va alohida tillarga bo`linadi.

Toponimikada yangi klassifatsiya yo`q. Mukammal klassifikatsiyada asosiy savolga javob berishi kerak, nima, qanaqa ob`ekt (dare, tog`, shahar, qishloq va boshqalar), qaysi tilda (Rus, o`zbek va boshqalar), nega, sababi va nomning mazmuni.

2.3. Toponimik malumotlardan foydalanish

Geografik nomlar geografiyaning asosiy tarkibiy lismi xisoblanadi. Ulardai geografiyada beriladigan malumotlarni xududiy bog`lashda foydalaniladi. Geografiyada biror xodisa yoki voleani tushuntirmolshi bulinsa, albatta joy nomi bilan bog`lapadi. Geografik lonuniyatlarni geografik obekt nomisiz tushuntirib bulmaydi.

Umumats, geografiyada joy yoki geografik obekt nomi bilan bog`lanmasdan bilim berish mumkin emas. Ikki joy tabiatini liyoslash ushun

xam joylar nomini bilish kerak. Umuman uluvshilarni xaritalarini bilishi joy nomlarini laishalik darajada bilishi bilai belgilanadi.

Biroq geografik nomlar, ayni sa shet el geografik nomlari bolalarga tushunarsiz, ularni eslab olish u yolda tursin xatto talaffuz qilish xam juda qiyin. Bunday nomlarni uluvshilar eslab olishlari ushun ularning maposini tushuntirib berish juda muximdir. Shunki tushunarsiz sozlarni eslab olishdan kura tushunarli-sozni, xatto sozlar birikmasini eslab olish osonroqdir.

Geografik nomlarni shular, tushunishga maxalliy geografik terminlarni (atamalarini) organish yordam beradi. Maxalliy geografik terminlarni tushunish uluvshilarga atrof muxitni ongli bilib olishga yordam beradi. Bu esa ularni ulkasiga, vataniga muxabbatni tarbiyalaydi.

Geografik nomlarni maktabda organishda uluvshilarning nomlarni toqiri yozishni va toqiri talaffuz qilishni bilib olishlariga erishish zarur. Bu talabning ahamiyati shundaki, geografik nomlarni toq'ri yozish uluvshilar savodxopligini muxim qismi xisoblanadi, nomlarni toqiri talaffuz qilish esa ularni milliy madaniyatini ustiradi.

Geografik nomlarning tarbiyaviy, ilmiy ahamiyati xam juda katta. Mamlakat siyosiy hayotida quy berayotgan uzgarishlar uning xaritasida aks etib turadi. Mamlakatimiz Uzbekiston istiqbolga erishgandan keyin uning xaritasida xam uzgarishlar buladi. Mustamlakalik davrida ularni vatanining sissatini ifodalovshi geografik nomlar uzgardi. Istiqbolni, milliy qadriyatni

ulug'lovshi geografik nomlar vujudga keladi. Mamlakatimiz tabiati, xallimiz kasb xunari, milliy ananalar, iadriyatlarimiz bilan bog'li1 nomlar tiklandi. Istillo1, Mustalillik maydopi, Amir Temur xisboni, Mirzo Ulug'bek tumapi, Vobir bogi, Alisher Iovoii bog'i, Mirobod, Muzrobot tumanlari shular jumlasidandir. Dunyoda ruy beradigan siyosiy uzgarishlar xaritada, binobarin, geografik nomlarda xam uz aksini topadi.

Geografik nomlarda Erni geografik urganish tarixi xam aks etadi. Yangi erlarni oshgan, urgangan kupshilik sayyoxlar, dengizshilar, tadlilotshilar nomlari geografik xaritalardan mustaxkam urin olgan.

Kupshilik geografik nomlar tabiiy sharoitni (er yuzasi relefini, usimliklar va xayvonat dunyosini, tabiiy xodisa va volealarpi), axolining urf —odatlari, xujaligini aks etdiradi. Geografik nomlar asrlar davomida sallanishini iazarda tutsak, ularning utgan zamon tabiati, ruy bergan xodisa volealar, kishilarning tarixiy kasb-korligi, urf-odatlari, axolining migratsiyasi xalida limmatli malumotlar olish mumkin.

III. BOB. Xorazm viloyati yer-suv nomlariga geografik tarif

3.1. Xorazm toponimlari xaqida tushinsha

Mamlakatning shimoliy-gʻarbiy joylashgan, qadiymiy sugʻorish madaniyatiga ega bolgan kuxna viloyatlardan. Tarkibida 10 qishloq tumani (Bogʻot, Gurlan, Urganch, Xiva, Xonqa, Shovot, Yangiariq, Yangibozor, Qushkupir, Xazorasp); 3 shaxar (Patnik, Urganch, Xiva); 7 shaxarcha (Gurlan, Xonqa, Chalish, Shovot, Yangibozor, Qushkupir, Xazorasp) bor. Mamriy markazi – Urganch shaxri.


Xorezm viloyati tabiiy sharoyati bilan respublikadagi boshqa viloyatlardan farq qiladi. Uzbekstonning gʻarbi va janubi-gʻaribdagi **Qorakum chuliga** yondosh keng bushliqlarida bu viloyat bamisoli paxtazorlar, bogʻ-rogʻlarga burkangan yam-yashil orolni eslatadi. Xorazin viloyati **Amudaryoning** quyi qismidagi aholi eng zich joylashgan regiondir. Viloyat yer yuzasi Amudaryoning qadimgi deltasidagi pasttekislikdan iborat. Viloyatda **Toshsoqa, Polvonyob, Gʻazovot, Shovot, Urgancharna** va boshqa sugʻorish kanallari, **Tuyamwyin suv ombori** qurilgan.

Xorazin vohasi boy va qadimiy tarixga ega. Amudaryo sohili buylab joylashgan Xorazm hududida qadimdan turli qabilalar va xalqlar yashagan.

Miloddan ancha yil oldinroq ana shu hududda Xorazm davlati barpo etilgan. Xorazmliklar yuksak madaniyatli xalq bulgan.

Xorazmning qadimgi aholisi xorazmiy tilida (sharqiy eroniy tillarning shimoliy gurixiga mansub) suzlashgan. Keyinchalik ular turli qabiylalar va xaliqlar bilan aralashib ketgan. Turkiyzabon qabiylalarning Xorazmda urnashib qolishi oqibatida xorazmliklar uz tillarini unuta boshlaganlar. Turkiy tillar asta-sekin xukmron mavqeni egallay boradi. Chunga qaramasdan xorazmiy tili 13-14-asrlarda ham saqlanib qolgan edi. 14-asr urtalarida va oxirlarida ham Janubiy va Shimoliy Xorazmda chu tilni bilgan odamlar bulgan.

Хоразм вилоятининг маъмурий бўлиниши



Xorazmiy tili turkiylashgan bulsa-da, xorazm shevalari leksikasida arabcha va forischa suzlardan farq qiladigan qadiymiy unsurlar uchraydi. Bundan tashqari, Xorazm shevalarda semantik jixatdan xiralashgan leksik xorazmiy tilidan qolgan leksik birliklar deb xisoblaydilar.

Bundan unsuplar toponomiyada ayniqsa yaqqol seziladi. Akademik V.V.Bartold *arna, yap* (yop) suzlarini xorazmcha deb xisoblagan va “u`ta, obdon yaqshi” manosidagi qadimgi *arta* (arda) sifati Xorazmning geografik nomenklaturasida tilga olingan toponimlardan qadimgi

Xorazmning katta va boy shaxri **Artaxushmitan** (Artaxushmitan) bilan **Ardakuva** qishlog`i nomlarini usha *arta* (arda) unsuridan tarkib topgan oykonimlar deb xisoblaymiz.

Xorazmlik toponimist professor Z.Dusimov *var* (vara), *pur*, *kat*, *kas*, *qala*, kabi unsurlarni qadimgi Xorazmning toponimik indikatorlari deb xisoblaydi.

Eronshunos V.I.Abaev *var*, *vara*, *par*, *pur*, kabi unsurlar etimologik jixatdan bir-biriga yaqin suzlar bolib “istexqom devori”, “qurg`on, g`ob” kabi manolarni anglatadi deb xisoblagan. Chindan xam “Avesto”da *var* – “biron joining atirofiga devor olish”, “og`ilxona”, *fravar* – “istexkom”, vengerchada *var* - “qala”, *varosh* – “shaxar”, forischada *vara* – “devor”, “g`ov”, qurd tilida *ver*, *var* – “turar joy”, “manzil”, “qonish joyi”.

Хоразм вилоятидаги умумтаълим мактаблари, академик лицей
ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона
ва ташкилотлар харитаси




Богот туманда умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона ва ташкилотлар харитаси




Гурлан туманда умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона ва ташкилотлар харитаси




Кўшкўпир туманда умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона ва ташкилотлар харитаси




Урганч туманда умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона ва ташкилотлар харитаси






Хонқа туманда умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона ва ташкилотлар харитаси

КХК ва АЛ -	9
Умумтаълим мактаблари -	53
Тумандаги корхона ва ташкилотлар -	3333
Янги ташкил қилинган корхона ва ташкилотлар -	172
Вақтинча сақлаб қолинган умумтаълим мактаблари -	0




Шовот туманда умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона ва ташкилотлар харитаси


КХК ва АЛ -	6
Умумтаълим мактаблари -	54
Тумандаги корхона ва ташкилотлар -	3442
Янги ташкил қилинган корхона ва ташкилотлар -	222
Вақтинча сақлаб қолинган умумтаълим мактаблари -	0



Янгиариқ туманда умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона ва ташкилотлар харитаси



Янгибозор туманда умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий таълим муассасалари, корхона ва ташкилотлар харитаси



Xorazmning qadiymiy poytaxti turli manbalarda va turli davrlarda **Fil, Fir, Kas, Kat, Xorezm** degan manodosh shakillar xam tilga olingan. Shuni aytish kerekkiy, qadim zamonlarda xar qanday yirik axoli punkti, xususan,

shaxarlarning, ayniqsa shaxar-davlatlarning atroflari istexkom devoir bilan oralgan. Shuning uchun eng yirik axoli punktini ifodalaydigan suz dunyodagi kubgina tillarda

“istexkom”, “qala”, “quron”, “mustaxkam devor bilan uralgan” kabi manolarni anglatadi (qala, ark, kox shaxar, kat va b). *Xorezm* suzini xam shu jumlagi kiritish mumkin.

Arab geograflaridan Ibn Xabqal Kasni Shaxriston, yani “ichki shaxar” xam derlar, deb yozgan bolsa, Beruniy Xorazm 3 qisimdan iborat bulib, al-Fir shaxarning eng mustaxkam markaziy arq qismi ekanligini aytgan.

Z.Dusimov Xorazm toponimlarini davrlarga bolar ekan *pur* (fur, pil), *var* (vara) unsurli nomlarni, jumladan, **Varag`deh**, **Varag`zun** toponimlarini ulka tarixiy toponimiyasining eng qadimiy bosqichga kiritadi. *Var(a)g`* elementi haqida shuni aytish kerakki, arabizabon mualliflar arab grammatikasiga amal qilib, suz oxirida ketma-ket ikki undosh kelgan urnlarda undoshlar orasiga qandaydir belgi quyib yozishga xarakat qilganlar. Misol uchun Samarqand shahri yaqinidagi **Rabotxuja** qishlog`ining oldingi nomi Istaxriy, Muqaddasiy asrlarida va boshqa tarixiy manbalarda **Varqsar** (Varqsar) urniga **Varaqsar**, Buxoro **Ras al-Varaq** (Ras al-Varaq) shakillarida qayd qilingan.

Sug`d tilida, demakki xorazmiy tilida ham *varq* (varg`) – “tug`on”, *varag`zan* esa (tug`risi varg`zan) – “tug`on ustasi” demakdir (qiyoslang: *devorzan* – “devor ustasi”, “paxsachi”).

Xiva toponimlari ham usha substrat nomlar jumlasiga kiritish mumkin. Chunki **Xiva** nomi **Xeyvaq** qudug`I bilan bog`liq. Tilshunos F.A.Abdullaev **Angarik**, **Bezganik**, **Knik**, **Pishkanik**, **Rafanik** tilidagi nomlarni Xorazm toponimiyasining eng qadimiy shakli deb hisoblagan edi. Demak, **Xayvaniq** (Xeykaniq) kanali kabi **Xayvaq** qudug`i nomlari ham usha eng keksa toponim sirasidandir. Xayvaq qudug`i haqida ham rivoyat bor. Bu rivoyatni

Ya.G'.G'ulomov Xudoyberdi Qushmuxammadning “Dili g'aroyib” qulyozmasidan keltirgan: “Bu mamlakat (Xorazm)ning qal'alaridan biri **Qalai raml** –“Qum ustidagi qal'a”dir. Uni Nuh payg'ambarning ug'li Som qurgan. U qal'ani uz otasining kemasiga uxshatib solgan. Uni **Xeyvaq** deydi. Som bu yerga kelib qum tepaligi ustida uxlab yotib tush koradi: tepalikda 300 mash'ala yonib turgan emish. Tushini yaxshilikka yuyib, qum tepaligi ustiga tuproq yotqizdirdi va unga shahar shaklini berdi. Ikkinchi marta kelganda atrofqa devor oldirdi va g'arbiy yonga quduq qazdirdi. Bu quduqqa **Xeyvaq** deb nom berdi. Shaharning **Xeyvaq** deb atalishi ham shunda. Qal'a bir necha bor vayron bulgan va qayta-qayta tiklangan deyishadi. Xozir esa obod shaxar”.

Ya.G'ulomov Xiva va Xeyvaq suzlarining manosi noma'lumligach qolayotir deydi.

Ba'zi birovlar quduq nomi *xey-vax* [(“vax-vax” – mamnuniyat xitobi) suzidan deyishsa, boshqalar *xayva* yoki *xavak* (xoli, quruq)] suzidan kelib chiqqan deyishadi.

Arab geograflari Istaxriy va Muqaddasiy **Xiva** 10-asrda Xorazm vohasida eng yirik shaharlardan bulgan deb yozganlar. Xeyvaq qudug'i hamon mavjud. Lekin Xiva va Xeyvaq suzlarining ilmiy manosi jumboqligicha qolayotir.

Ana shu misollar ham Xorazm toponimlarining uziga hosligini kursatadi. Buni toponimik indikatorlardan bilsa ham buladi.

Ulka toponimiyasida eng kup tarqalgan termin *qala* (qal'a) suzidir. Qal'a suzi jonli tilda, shevalarda, toponimlar tarkibida bazan qala shaklida ham uchraydi. Bu termin turli tilda va xilma-xil fonetik shakllarda hamda semantic tovlanishlarda Atlantika okeani sohillaridan Hindiston yarim oroligacha – Evropa, Afrika, Osiyoning bepoyon hududlarida son sanoqsiz toponimlar hosil qilgan. Bu so'z Ispan mustamlakachlari bilan birga Lotin Amerikasiga yetib bordi va Janubiy Amerika mamlakatlari toponimiyasida ham

sezilarli iz qoldirdi. E.M.Murzaev geografik nomlar tarkibidagi qal`a juda qadimiy element bulub, antic davrdan ham oldin paydo bulgan deydi. Xorazmda qal`a deganda ichki hovlisi bulgan va qalin devor bilan uralgan turar-joy tushinilgan. Keyinchalik shahar va qadimiy shaharlarning xarobalari ham qal`a deyilgan. Qoraqolpog`iston Respublikasi hududida ham qal`a elementli toponimlar ham kam emas: Ayoqzqala, Ayduqzqala, Arazqala, Oltinqala, Oqboshqala, Oqqala va boshqalar.

Xorazm viloyatining uzida esa qal`a komponenti mavjud oyqonimlardan quydagilarni aytib o`tish mumkin: **Achaqala, Ashaqqala, Buzqala, Doshqala, Idaliqala, Kunaqala, Chig`otoyqala, Shag`alqala, Shurqala, Yuqoriqala, Qaramanqala, Katqala.**

Turli xududlarning geografik nomlari toponimlarni xosil qiladigan maxalliy geogrfik terminlarga, yaniy toponimik indekatorlarga qarab boshqa erlarning joy nomlaridan farq qiladi. Xorazm viloyatida indikatorlar xilma-xildir. Boshqa xududlarda deyarli uchiramaydigan indikatorlardan misollar keltiramiz.

Alang (“ekinga yoraqsiz yer”, “eski ariq”, “anxor yoli”): **Alanglik, Kichialanlik, Ullyalanglik, Qoraalang;**

Atav (“orol”): **Kichchiatav, Ulliatav, Shamining atavi, Qamishliatav.**

Arna (“katta kanal”): **Arnasaqa, Otaliqarna, Paxtaarna, Polvonarna, Shovotarna.**

Xorazmcha bu soz haqida V.V.Bartold bnday degan: “10-asrda xam Xorazm xalqi boshqa eronliklar tushunmaydigan va hatto yozma hujjatlarda ishlatiladigan yuz ona tilida gaplashar edi; aftidan bu tilni keyinchalik fors tili emas, balki turk tili (turkey til) surib chiqargan . Sg`orish sohasidagi bazi bir terminlar (*arna* – “katta kanal”, *yop* – “kichik kanal”), shubhasiz xorazmiy tilining qoldig`idir”.

Arna suzi boshqa hududlarda ham malum: Jizzax va Sirdariyo viloyatlarida “jar”, “quriq uzan”; Shimoliy Qozogistonda – “daryo”, Janubiy Uzbekistonda – “dara”, Shimoliy Kavkazda – “buloq”.

Yop (“ariq”, “kichik kanal”): **Buzyop** (bir hecha marta takrorlanadi), **Oyoqyop**, **G`ovikyop**, **Kaltayop**, **Kattayop**, **Katyop**, **Kinikyop**, **Kulyop**, **Mangityop**, **Qumyop**, **Qizilyop**, va boshqalar.

Yormish (“kichik ariq”): **Buzyormish**, **Yormish**, **Kichchiyormish**, **Ulliyormish**;

Yosqa (“kechuv”): **Yomutyosqa**, **Machityosqa**, **Yzunyoqsa**, **Kumyoqsa**;

*Saqa-sag`a* (“Suv qulochi – suv og`zi, yaniy kanalning boshi”): **Arnasqa**, **Toshsaqa**;

Qayir (“kanal- yoki sv tarmog`i yoqasidagi nam tekkan yumshoq, qumloq yer”): **Bungiqayir**, **Tumanqayir**, **Qiblaqayir**.

Daryo yoqasidagi qovun ekiladigan serunum yer *qayir* deyilgan. O`zbek ilimiy geografik terminologiyasida toshqin payitta suv bosadigan tekis joy ana shu xorazmcha termin bilan *qayir* deb ataladigan buldi (ruschasi “poyma”).

Bundan tashqari viloyat xududida *badrov* (patrov), *badoq* (Buxoro atiroflarida *afdoq*-“kichik ariq”), *Oyoq* (daryo etagi), *tuz* (tekislik) kabi “sof xorazmcha” terminlar xam uchraydi.

Shu bilan birgalikta Xorazm toponimiyasida *kariz* (koriz), *kwl*, *kwlcha*, *kwpir* (kwprik), *ovul*, *taqir*, *twg`ay* (twqay), *yurt*, *qum* kabi umumturkiy terminlar ham keng istemolda. Lekin turkey dunyodagina emas, balki qushni hududlarda ham kup uchraydigan *ariq* (“ayriq” – ikkiga ajralgan suzdan) termini Xorazm toponimiyasida juda kam uchraydi (**Xwjaariq**, **Yangiariq**).

Machit (masjid) suzi haqida ham shunday deyish mumkin: *machit* Uzbekistonda ayniqsa shwrolar hokimyatidan oldin oykonimiyada eng faol

ishlatilgan terminlardan bulgan. Kupgina hollarda *qishloq* bilan *machit* tushnchalari farq qilinmagan. Xorazmda esa soliq twlaydigan har qanday aholi punkti *machit* deb atalgan. Masalan, 1910 yilda faqat Amudaryoning chap soxilida 1368 *machit* bulgan. Bularning kuplari kishilar ismi bilan atalgan: **Avazmachit**, **Bobojonmachit**, **Paxlovonmachit**, **Raxmonbergan machit**, **Qurbonmachit** va boshqalar.

Shurolar hokimiyatining dastlabki yillarida utkazilgan aholi ruyxatida Xorazmda *machit* suzi bir necha yuz qishloq nomlari tarkibida takrorlangan. Xorazm viloyatining shahar-qishloqlari nomlaridan bu termin surib chiqarilgan desa buladi. Faqat Yangiariq tumanidan **Oqmachit** qishlog`i bor.

Xorazm viloyatinig o`ziga xosligi haqidagi qisqacha ma`lumotlar shulardan iborat.

3.2. Xorazm viloyati toponimlari

Avshar – qishloq, Hazorasp tumani. Avshar (Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk” asarida *afshar*, Rashidaddinning “Jome at-tavorix” asarida *avshar*) – qadimgi wg`uz urug`-qabilalardan biri.

Avsharbadoq –qishloq, Hazorasp tumani. *Avshor* – urug` nomi, *badoq* – wrtacha ariq.

Ayritom – qishloq, Xiva, Yangiariq, Shovot tumanlari. Turkmanlarning salar qabiylasining bir urug` *ayritom* (ayritamlar) deb atalgan.

Amudaryo - Xorazm viloyatining yagona daryosi. Yunon mualliflari asarlarida **Oks** (Oksos) deb yozilgan. Daryoning **Arang**, **Raxa**, **Ranxa**, **Aranxa** degan qadimiy nomlari ham bor. Maxalliy axoli Wkuz, arablar **Jayxun** deb atagan. Ba`zi birovlar bu nom Tavrotda hikoya qilingan **Gixon** daryosiga nisbat berib quyilgan deyдилar. V.V.Bartold esan arablar **Jayxun** va **Sayxun** nomlarini Shimoliy Suryadagi **Jayxon** va **Sayxon** daryolari nomi bilan atashgan bulsa kerak

deydi. Tarixchi Gardiziy *Jayxun* har qanday katta daryo uchun turdosh ot degan edi. Haqiqatdan ham Zarafshon vodiysida bir ariq **Jayxun** deb atalgan.

Amudaryoning qadimgi eroniy nomi **Vaxsh** (Vaxshob) bulgan; daryoning yirik irmoqlaridan biri xozir ham **Vaxsh** deb ataladi. Abu rayxon Beruniy **Vaxsh** xorazmliklarda suv hudosi (parisi) – malak nomi deb yozgan. Amudaryoni Pokistaonda xozir **Vakshunada** deb atar ekanlar. Urta Osiyoda **Vaxsh**, **Vaxshivar**, **Vaxshivardara** degan joylar bir necha marta uchraydi.

Amudaryoning hozirgi nomi urta asrlarda (6-asrdan) **Omul** (Omuy, Omuya) shahri nomidan olingan deyishadi; bu suzoriylardan ham oldingi *amard* xalqi nomidan kelib chiqqan bulsa kerak, deydi V.V.Bartold. Mahmud Qoshg`ariy har qanday tinch, barqaror, qimirlamaydigan turg`un narsa amul deyilishini aytib utish mumkin.

Olimlar **Oks** (ba`zan **Akes**) Amudaryoning qadimiy turkey nomi **Wkuz** suzining uzginasi ekanligini aniqladilar. Amudaryoning shahobchalaridan biri hozir ham **Wkuz** deb ataladi (**wkuz** suzining asl manosi “daryo” demakdir).

Amudaryoning **Termiz daryosi**, **Kalif daryosi**, **Urganch daryosi**, **Xorazm daryosi** kabi bir necha nomlari ham bulgan.

Ardaxiva – rta asrlarda Xorazmda bolgan yirik qishloqlardan biri (qasoba). Daslab arab geograflaridan Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. *Arda*, *arta* qadimgi Xorazm tilida “yaxshi”, “ajoyib” degan manoni bildirgan. Ardaxiva – “YaxshiXiva”.

Ardaxushmitan (Artaxushmitan, Raxushmitan, Xushmitan) – urta asrlarda tilga olingan shahar. Dastlab Istaxriy, Muqaddasiy, sungra Yoqut Hamaviy asarlarida tilga olingan. *Arda* (arta) *xush* – “yaxshi” , “ajoyib”, **Ardaxushmitan** esa “uta yaxshi qa`la, qurg`on” demakdir.

Ardaqquva – urta asrlarda Xorazmda (Gurganj-Kuxna Urganch yaqinida) tilga olingan qishloq; qarang **Ardaxiva**.

Ashaqqul – qishloq Xiva tumani. *Ashaq* Xorazmliklar tilida “etak”, “past”, “quyi” demakdir; **Ashaqqul** – “etakdagi qul”.

Bajanak – qishloq, Gurlan tumani. Urta asrlarda Volga buylarida yashagan pechenek qabilalari aslida *bajanak* deb atalgan. Pecheneglar 8-9 asrlarda Sirdaryoning urta oqimi bulib va ndan Shimoliy hamda Janubiy chullarda kuchib yurgan.

**Bag`alan** (Bog`olon) – qishloq Gurlan tumani. Toponim milodning dastlabki asrlarida Azovbwy, Kavkaz oldida yashagan qadimgi *alan* qabiylalarining nomi bilan atalgan degan fikr bor (Bog`i olon –“Alan bog`i”). Aslida bu qishloq ming qabiylasining *bog`lan* urug`i yoki yuz qabiylasining *bog`anali* urug`i nomi bilan atalgan bulsa kereak.

Gurlan tumanidagi Mingbag`alani, yani “ming qabilasining bag`alan urug`i” degan qishloq ham bor.

Bevatan - qishloq, Yangiariq, Qushkupir tumanlari. *Bevatan* – Xiva xonligida yer-suvdan mahrum eng qashshoq dehqon. Bevatan deganda uy-joysiz, oilasiz kishi, ijtimoiy manoda esa - davlat (podsholik) yerlarini ijaraga olib ishlagan kambag`al dehqon tushinilgan; bevatanlarning ota-bobolari ham shunday kun kechirishgan, boshqacha aytganda, bevatanlik otadan bolaga meros qolgan.

Bekenchilar – qishloq, Urganch tumani. *Beken* –suv yollarida hafli joylarni belgilash va kemalar yura oladigan yollarni aniqlash uchun langarga bog`lab qoyilgan suzg`ich chirog`; *bakancvh* (bekenchi) – beken chirog`larini yoqib, uchirib turadigan ishchi; bu suz Amudaryo etagida kasb nomi va toponimga aylangan.

Bazorjiq – qishloq, Xiva tumani. *Bozorjiq* – “bozorcha”.

Burlaq – qishloq, Shovot tumani. Dashti-qipchoq uzbeklari uisida *burlaq* urug`i bulgan.

Gurlan – shaharcha Gurlan tumani markazi. Xorazm viloyatida *gurlan* degan kichik urug` bulgan.

Dishanqala – “tashqi shahar”, **Xiva** shahrining tashqi qismi; qarang **Ichanqala**.

Davdon, Devdon – Amudaryo etagidagi qadimgi daryo tarmoqlari. Dev (div, dov) va don – “joy, manzil, makon” suzlaridan, “devlar makoni”, “devxona” demakdir. Amudaryo qadimgi suv xudosi (malak) *vaxsh* deb atalgan. Vaxshning makoni bulganidan daryo tarmoqlari **Devdon** deb atlgan.

Jalayil – qishloq, Yangiariq tumani. *Jaloyir* (qishloq) etnonimining dialectal shakli.

Ichanqala – Xiva shahrining qadimiy markaziy qismi; *Ichanqala* – “ichki shahar” degani. *Dishanqala* esa 17-18-asrlarda ichanqala atrofida bunyod etilgan “tashqi shahar”dir. Xorazmdan boshqa yerlarda shaharning ichki qismi arabcha *madina* yoki *shohriston* yoinki *darun* (“ichki shahar”), tashqi qismi esa *rabod*, *berun* (“tashqi qunoq”) deb atlib kelgan.

Qatqala – Beruniy tumanidagi joy. Qadimgi Xorazm poytaxti Kot shahrining xarobasi; qaran **Kot**.

Kot (Kos) – Xorazmning qadimgi poytaxti. Bu shahar tug`risida Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy, shuningdek, Beruniy asarlarida mukammal ma`lumot berilgan. Yoqut Hamaviy yozishich, *kot* xorazmliklar tilida “chuldagi devor”, “choldevor” degani. Shaharning markaziy qismi – shahriston **Fil** yoki **Fir** deb atalgan. Qadimgi **Kot** shahari harobasi hozirgi Beruniy shahri yaqinidadir (qarang **Katqala**).

Kunazey – qishloq, Qushkupir tumani, “kuhna zovur” manosida. Xorazmda zovurni *zeykash* (qisqartirilgan shakli - *zey*) deyishadi. Aslida *zey* adabiy tildagi zax suzining bzilgan shakli.

Kupaklar – qishloq, Urganch tumani. Turkmanlarning guken qabiylasining bir urug`i *kupaklar* deb atalgan.

Mazdubast – Amdariyo yoqasida, tuyamyin yonidagi quruq nzan. Abu Rayxon Beruniy bergan malumotlarga kura, qadimda Amudaryo suvi Mazdubast uzani orqali Qoraqumga oqqan. Bu nom ikki qismdan iborat: *Mazda* –mazdaizm xudosining nomi; *bast* esa “istehkom”, “tug`on”, “kanal” demakdir. Mazdubast “Mazda tug`oni” degan ma`noni mildiradi.

**Mahmudwtog`asi** – qishloq, Xonka tumani. *Wtog`asi* – biron qishloqning obru-etiborli kishisi. Akademik Ya.G`.G`ulomov Xorazmda topilgan katta uchoqlar biron umumiy oila yoki urug`ning muqaddas olovi bulganidan darak beradi va wtog`asi termini o`sha olovga sig`inadigan kishilar jamoasiningn “og`asi”, “boshlig`ıı” manisini bildirgan bulsa kerak. Bu suz ko`pgina lug`atlarda “ut, olov og`asi” deb izohlangan.

Wtog`a (wtog`a) suzning “qushning yirik pari, pati” manosi ham bulgan. Bobur “soch wtag`si”, “qarqara utag`asi”, “boshiga wtag`a sanchib” kabi iboralarni ishlatgan. Demak, Bobur bosh kiyimiga taqib yuradigan soch, qarqara, ukki kabi qushlarning patlari tushinilgan. Shu ma`noda boshga utog`a “par-jig`a” taqib yurgan etiborli – nufuzli kishilar – urug` oqsoqollari *wtog`asi* –“wtoga sanchib yurgan kishilar deb atalgan.

*Wtog`asi* suzining “wtov og`asi” manosi ham bor. *Wtov*, *wtoq* – buz uy. Shayix Sulaymonning Chig`atoycha – usmoniycha lug`atida *utog`asi* asli *wtoq* (*wtov*) og`asi bulib, “xona boshlig`i” (forscha – katxudo demakdir) deyilgan.

Moshlaq – qishloq, Hozarasp tumani. Bu etnotoponim. Birinchidan, -lar qushimchasi faqat kishilar jamoasini bildiradi; ikkinchidan, kenagas qabilasi tarkibiga kirgan avaqli urug`ining bir bulagi mosh deb atalgan.

Multon – qishloq, yangiariq tumani. Wrtta Osiyo lulilari multon ham deyiladi. Multon – Pokistonning shimoliy-g`arbidagi shahar; qadimda bu shahar Eron bilan Turon ortasidagi Karvon uyli yoqasida bulgan va lulilar shu yerdan Wrtta Osiyoga utgan. Multon – “luliqishloq”.

Navuryap –qishloq, Gurlan, Shovot, Yangibozor tumanlari. Turkanlarning xojaeli qabilasining bir urug`i naur (navur) deb atalgan.

Nukuslar – qishloq, Yangibozor tumani. **Nukusyop** – Gurlan tumani, **Nukusovuli** – Bog`ot tumani. Uzbeklarning qung`irot va boshqa qabilalari tarkibida *nukus* (nukuz) urugi bulgan.

Oydin – qishloq, Xonka tumani. Xorazmda oydin – kul, kulning chuqur joyi, kulning usmliksiz ochiq joyi, urtasi.

Olchinsolma – qishloq, Bog`ot, Hozarasp tumanlari. **Olchinsolma** “olchin (qabilasi) arig`i” (solma – Hozarasplar tilida kichik “ariq”).

Orolli – qishloq Hozarasp tumani. *Orolli* – urug` nomi.

Otaliqarbob – qishloq Hozarasp tumani. Xonliklar davrida butun bir tumanning sugorish ishlarini nazorat qilib turgan mansabdor shaxs – *arbob* deyilgan; mikroblar va boshqa suv ishlari bilan majg`ul bulgan boshqa amaldorlar arbobga buysingan. Tog`li tumanlarda esa saylab qoyilgan qishloq oqsoqollari *arbob* deyilgan. Sudlov, yasovulchilik ishlarini amalgam oshirish, aholiga ma`muriy yul bilan tasir kursatish arbobning qulida bulgan; arboblar yer sotish, meros taqsimlash paytlarida “inomlar” olib turgan.

Otaliqarna – Xorsimdagi Mang`itarna kanalining ikkinchi nomi. *Otaliq* – Xorazm xonligida oliy mansablardan biri, eng obuliy kishi, biy. Xorazmda b

unvon Abulgʻoziy Baxodirxonning (17-asr) otasi Arab Muhammadxon xonlik qilgan davrda joriy etilgan.

Otashxalfa – qishloq Qushkupir tumani. Otashparastlikda muqaddas olov oqsoqoli; qarang **Wtogʻazi**.

Oqsaroy – qishloq Hozarasp tumani. Amudaryoning irmoqlaridan biri ham **Oqsaroy** deb atalgan. *Oqsaroy* – saroy qabilasining bir tarmogʻi.

Sandikli - qishloq, Bogʻot, Hozarasp tumanlari. G.I.Karpov maʼlumotlariga kura, turkmanlarning ersari, S.Otoniyozov maʼlumotlariga kura esa, salar qabilasi tarkibida *sandikli* urugʻi bulgan.

Saqachi – qishloq, Hozarasp tumani. Xorazmda kanalning bosh tugʻoni *saqa*, tugʻon ustasi *saqachi* deyilgan.

Sipoyob – Xorazm viloyatidagi ariq. Xonobod kanalidan boshlangan. Manosi *sipohi yop*, yaniy “oltiqliq askarlar arigʻi” demakdir. Chunkiy ariq atrofidagi yerlar qoshinlarga bulib merilgan edi, deydi V.V.Bartold.

Sogʻdara – Xorazm viloyatidagi dara. *Sogʻdara* – “ung tomindagi dara” demakdir.

Taylaqlar – qishloq, Bogʻot tumani. Qozoqlar, Qoraqalpoqlar, Qirgʻizlar, Turkmanlar tarkibida *tylaq* (tayloq), turkmanlarning byat qabilasi tarkibida *taylaqlar* urugʻi bulgan.

Tozabozor – qishloq, Bogʻot tumani. **Tozayop** – Gurlan tumani; **Tozayorgan** – Gurlan tumani; *toza* – “yangi”, *yop* – “katta ariq”, *yorgan* – “kanal, ariq”.

Tuzloq – qishloq, Yangiariq tumani. *Tuzloq* – “tuz kup joy”, “tuz koni”.

Ustalar – qishloq, Yangibozor, Hozarasp, Bogʻot, Urganch tumanlari. Turkmanlarning salar qabilasi tarkibida *ustalar* urugʻi bulgan.

Xarrotlar – qishloq, Hozarasp tumani. Yog`ochdan har-xil asboblarni yasaydigan usta *xarrot* deyiladi; masalan, taroq ustasi *taroqchi* yoki *xarrot* deyilgan. Buxoro shahrining **Xarroton** degan guzari (mahallasi) bulgan.

Xandaxyop – qishloq, Gurlan tumani. Asli suv nomi (gidronim) bulgan b suz “zovur” manosi dagi xandak suzidan nom olgan bulishi mumkin; shu bilan birga *xandaqli* (xandikli) degan urug` nomi ham bulgan. Xandakli urug`I uzbeklar (qung`irot qabiylasi), turkmanlar va qoraqolpoqlar tarkibiga ham kirgan. Etnonimlar tarkibidagi *-li*, *-chi* kabi affikslar ayniqsa boshqa component qushilib qushma suz (toponim) yasalganda tushib qolishi mumkin.

Xonobod – Xorazm viloyatidagi kanal. Kanal Xorazm xoni Muhammad Amin (1846-1855 yillari) davrida qurilgan va axon sharafiga shunday deb atalgan.

Xonqa – shaharcha, Xonqa tumani markazi. **Xonqa xonaqoh** – “zikirxona” suzidan olinan; Xonqa 10 – asrda **Darxos** deb atalgan. V.V.Bartold *xonaqoh* forscha *xona* suzining sug`diylar tilida talaffuz qilishidir degan.

Xorazm – Wrtta Osiyodagi eng qadimiy nomlardan biri. Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da **Xvairizam**, qadimgi foris tili yozuvlarida **Xuvarazmiy**, miloddan qariyb 6 asr muqaddam ijod qilgan miledlik Gekatey asrida **Xorasmiya** shaklida tilga olingan. Gerodot bu ma`lumotlarni yanada tuldirgan. Xorazm arabnavis geograflar asarlarida xorazmiy tilida Xvarizm shaklida qaid qilingan.

Xorazm suzining manosi haqqida bir qancha fikrlar bor. Wrtta asr geograflaridan Muqaddasiy va Yoqut Hamaviy asarlarida Xorazm suzining kelib chiqishi haqqida bir rivoyat keltirilgan: podsho jaxl bilan uz fuqorolaridan bir qanchasini kimsasiz uzoq ulkaga badarg`a qilishni buyuradi, lekin u yerda utin va gusht (yaniy Amudaryoda baliq) kup edi. Musoffirlar bu o`lkani obod qildilar va Xorazm deb atadilar (xvar - “gusht”, razm – “utin”).

Kupgina olimlar Xorazm suzi ikki tarkibiy qismdan iborat deb hisoblaganlar va turlicha izohlaganlar. B nomning ikkinchi qismi (*zmi*, *zim*, *zam*)ning “yer”, “ulka”, “joy” degan manoda ekanligiga hechkim shubxa qilmaydi. Lekin *xav* (xor) komponenti xiyla tortishuvlarga sabab bulgan: bazi birovlar uni “unumli yer” deb, boshqalar “yomon (joy)”, uchinchi bir hil olimlar esa “pastlik (yer)” deb tushintirdilar. S.P.Tolstov Xorazm suzini “Xvariyy yoki xarri (xurrit) xalq ulkasi”, “quyosh xalqi yeri” deb izohladi.

Sug`dshunos olim M.N.Bogolyubov kura, **Xorazm** uch tarkibiy qismdan iborat: *xu* – *var* (vara) – *zim*. *Var* (vara) qadimgi xorazmiy tilida “devor”, “marza”, “g`ov”, “qal`a”, “qura”, *xu* – “yaxshi”, binobarn Xorazm “yaxshi qurali lka”, “ajoyib qal`alari bor diyor” degan manoni anglatadi.

Xujalik – qishloq, Xiva tumani. **Xujaliq** “xwjalar” degani. Yangiariq va Xiva tumanlarida **Xujalar** qishloqlari bor.

**Chig`irchiq** – qishloq, Shovot, Yangiariq, Qushkupir tumanlari. *Chig`ir* – quduqdan suv chiqaradigan gidroinshoot (qurilma), *chig`irchi* – chig`ir bilan suv tortib oladigan kishi.

Shirinlar - qishloq, Yangibozor tumani. *Shirin* – uzbeklar tarkibidagi urug`.

**Shig`ovul** – Xiva tumanidagi mavze. *Shig`ovul* – elchini boshlab yurgan amaldor, shox yoki podsho saroyida tantana marosimlarni boshqarib va nazorat qilib turgan amaldor ham *shig`ovul* – deyilgan.

Shovot - saharcha va kanal, Shovot tumani. Dastlab 1663-1687 yillarda xukim surgan Xorazm xoni Anushaxon 1861 yilda qurdirgan **Shoxobod** kanali va Shoxobod qarsi nomi bilan atalgan (Anushaxon Mashhad shahrini qulga kiritgach shox unvoni olingan edi). Shoxobod kanali dastlab **Purfayz** (yani Serfayz) deb atalgan. *Purfayz* suzi abjad hisobida kanalning qurilgan yilini (hijriy 1092) ham kursatib turar edi. Shoxobod bora-bora *Shovot* bulib ketgan.

Echkilar – qishloq, Yangiariq tumani. Uzbeklar ulusi, Oq Urda tarkibidagi qadimgi qabilalar orasidagi *echki* qabilasi bulgan. Shaybonixon Mouvarannaxrni zabt etishda jumladan *echki* qabilasiga tayanib ish tutgan. 20-asr boshlariga kelganda, qatag`on qabilasining kichik bir urug`i *echki* deb atalgan.

Wtog`asi** – 1) olov og`asi, otashparastlik davrida muqaddas olov boshlig`i; 2) bosh kiyimga wtog`a – qush patidan jig`a sanchib yuradigan obruli kishi; 3) wtov og`asi, katxudo; qarang **Mahmudwtog`asi.

Qaraman – qishloq, Hozarasp, Qushkupir tumanlari; **Qaramanqala** – Qushkupir tumani. *Qaraman* (garaman) va *oqman* (akman) – turkman qabilalari. Qaramanlar uzbeklar tarkibiga ham kirgan. Shu bilan birga qayrag`och daraxtining bir turini Xorazmda *qaraman* (qoraeman) deyishadi.

Qiniq – qishloq, Xiva tumani. Xiva shahri yaqinida **Qiniqyop** degan kanal bor. *Qiniq* wg`iz qabilalaridan biri blib, Mahmud Qoshg`riy devonida, Rashiduddining “Jome at-tavorix”ida qayd qilingan.

Qishloqqishloq – qishloq, Xiva tumani. Kenagas qabilasining bir urug`i *kishliq* deb atalgan. Qishliqlar yashaydigan qishloq **Qishliqqishloq** deb atalgan. **Qishloqqishloq** deyish tug`ri emas.

Qushloq – qishloq, Yangiariq tumani. *Qushloq* – qushlar kup joy. Kuchmanchi uzbeklar ulusida *qushlov* degan urug` bulgan.

Hozarasp – shaharcha, Hozarasp tumani markazi. Dastlab Istaxriy va Ibn Havqal qayd qilgan. Shu nomli qal`a ham bulgan, bu qal`a arab geograflari, jumladan Yoqut Hamaviy asarlarida qayd etilgan. Hozarasp nomini “Ming ot” deb izohlaganlar. Afsonada bunday deyiladi: qal`ani bahaybat dev qurgan ekan. Bu dev suv ichkani kelgan ming qanotli otni aldab qulga tushiradi, qanotlarini kesib qulga urgatadi. Hozarasp nomi ana shundan kelib chiqqan ekan. Hozarasp turkey xazar xalqi nomi bilan yiki ikkinchi tarkibiy qismi – os qavmi nomi ilan atalgan bulish mumkin.

Xulosa

Beqiyos lisoniy, tarixiy va geografik yodgorliklar hisoblangan joy nomlari muayyan tilda xalq tomonidan yaratiladi va o`sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy va manaviy xayoti xaqqida ahborot beradi.

Har bir mamlakat, ayniqsa, mustaqil davlat o`z hududidagi geografik nomlarga befarq qaray olmaydi – o`zining “toponimik xujaligi”ni avaylab asraydi, hisob kitob qiladi.

Har qanday kattaroq hududning mahalliy hususiyatlari mavjud. Har bir region uzining tabiy sharoyiti iqtisodiyoti, geografik terminlari bilan yon atirofidagilardan ozmi-ko`pmi farq qiladi, aholining tili va shevalari, etnografiyasi ham tafovvt qilish mumkin. Demak, bir regionning tonimlari nafaqat leksik jihatdan, balkim fonetik jihatdan ham boshqalarnikidan ajirali turadi.

Bunday hollarda respublika hududini toponimik jihatdan rayonlashtirish zaruriyati tug`iladi. Chindan ham – toponimika fani geografik nomlar majmui – toponimik landshaftni urganadi, toponimik landshaft esa, lisoniy, tarixiy va boshqa regional tafovvtlarga ega. Geograf toponimistlar rayon urniga kuproq

region terminini ishlatadilar. Biroq respublikamizning mamuriy-hududiy bulinishi bu sohada bizning mushkulimizni osonlashtiradi, chunki, respublika subektlari – har bir viloyatning tabiiy va iqtisodiy sharoyiti, binobarin toponimiyasi har holda farq qiladi. Yuqorida ko`rsatilgan misollar buni yaqqol ko`rsatib turibti.

Shuni aytish joyizki toponimlar qadimiy suzlar bulganidangeografik nomlarning kelib chiqishi haqqida fikir bildirish uta murakkab va ma`suliyatliy yumushdir. Shu urinda har qanday etimologiya nisbiy ekanligini qaid qilish zarurdir.

Ishda etnotoponimlarga, yaniy urug`-aymoq, el-elat nomlar bilan atalgan toponimlarga alohida ahamiyat beriladi, chunki, qabila urug` nomlarini boshqa suz terminlardan masalan, hayvonlar nomlari – totemlardan yaniy qabila-urug`larining “ajdodi” xisoblangan muqaddas jonvorlar nomlaridan farqlab olmasdan turib, ularning tub manosini aniqlab bulmaydi.

Aytilgan suz – otilgan uq emas, bayon etilgan fikirlarning xammasi xam uzil-kesil suzlar emas, zero har qanday etimologiya nisbiydir.

Jonajon ulkasini “besh quliday” biladigan ulkashunoslarning muloxazalariga mushtoqmiz. Biroq har hil toponimik rivoyatlarga erk berish ilmiylikdan yiroq ekanligini aytib quyaylik.

Hayot faoliyati havfsizligi va favqulotda vaziyatlarida fuqoralarni muhofaza qilish

O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Kengashining 19.07.2011 y. №208 sonli «Xalqning er silkinishlar oqibatida yuzaga keladigan favqulotda vaziyatlarda (ta'biy va texnogen tu'rdagi) harakat etishda tayarlash kompleks dasturin tasdiqlash haqida»gi qarori, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 22.07.2011 y. №310 sonli buyrug'in boschilikga olinib va o'rinlash maqsadida Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti rektorati buyrug'i (25.12.2012 y. №601 D/1) asosida «Hayot qavfsizligi» fani barcha ta'lim yonalishi buyicha talabalarga o'quv jarayonida urgatish uchun, magistrlik dissertatsiya ishi va bakalavr mutaxassislik bitiruv ishlarin o'rinlashda fanning huquqiy asoslari kiritildi. 4) binoan «Hayot faoliyati havfsizligi» fanini barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarga o'quv jarayonida o'rgatish uchun, magistr dissertatsiyasini va bakalavr malakaviy bitiruv ishini bajarishda fanning huquqiy asoslari kiritildi.

«Jamiyatda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ximoya qilish ta'minlanganda u chinakam huquqiy fuqarolik jamiyati bo'ladi. Har bir kishi o'z

huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o'z huquqi va erkinliklarini ximoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur» (I. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, 31 – bet).

XX asrning 60 – yillaridan boshlab faoliyat ko'rsatib kelgan fuqaro mudofaasi tizimining asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg'in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida xalq xo'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash hamda halokat o'choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o'z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi. Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg'in qurollari emas, balki boshqa xavf – xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo mumkin emas. Bular turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardir.

90 – yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo'yildi, yangi – yangi zamonaviy qurol turlari kashf qilindiki, ular odamlar uchun xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot ob'ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bular hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o'rnida yangi bir tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

Fuqaro mudofaasi o'rnini bosishi mumkin bo'lgan yirik hajmdagi favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egallashi, u tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishi lozim edi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni: tabiiy ofatlardan xavfli hududlar xaritalarini tuzish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurish, qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi va aholi tayyorligini amalga oshirishi lozim edi.

Shu o'rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to'g'ri keladi. Favqulodda vaziyatning o'zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko'zda tutishimiz lozim?

Favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, oid – harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarini halqaga olib, xavfli omillar tasirini tugatishga qaratilgan avariya – qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF – 1378 Farmoni** bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi.

Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so'ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonuni va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 5 qism va 27 moddadan iborat. Qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Fuqaro muhofazasi to'g'risida (2000 yil 26 may) – 4 ta bo'lim va 23 moddadan iborat. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida (1999 yil 19 avgust) – 13 modda. Qonunda OITS/OIV kasalligining oldini olish sohasidagi davlat ta'minoti, kasallikning oldini olish bo'yicha faoliyatni moliyalash, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga doir masalalar yoritilgan.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 15 modda. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 28 modda. Ushbu qonunning maqsadi qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 5 bo'lim va 28 moddadan iborat. Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol – mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida (2000 yil 15 dekabr) – 6 bo'lim va 31 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonuning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida (2006 yil 28 sentyabr) – 23 modda. Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. O'zbekstan Respublikasi MK (1997 jil 27 dekabr) №558-sonli qarori «O'zbekstan Respublikasida favqulodda vaziyatlarnin` oldini olish va ularda harakat etishda davlat tizimi haqida»g'i qarori bilan bekor etilib bu qaror qaytadan 2011 yil 24 avgustda O'zbekstan Respublikasi MK №242-sonli «O'zbekstan Respublikasida favqulodda vaziyatlarnin` oldini olish va ularda harakat etishning davlat tizimi ishlarin yanada yuksaldirish» haqidagi qarori bilan to'ltirilib qayta ishlandi.

O'zbekstan Respublikasi (2011 jil 19 iyul) №208-sonli qarori «Xalqni er silkinishlar oqibatida yuzaga kelish mu'mkun bulgan favqulodda vaziyatlarda (ta'biy va texnogen) harakat etishga u'rgatishning kompleks da'stu`rin tasdiyqlash» haqida qarori asosida barcha joylarda favqulodda vaziyatlarda ha`rakat etishnin` kompleks da'sturlari ishlab shig`ildi, oquv mashqulatlari alib borilmaqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:

Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va er ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish

borasidagi chora – tadbirlar to'g'risida (2007 yil 19 fevral, PQ – 585 – sonli). Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va er ko'chki hodisalari bilan bog'liq ishlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning ehtimol tutilgan oqibatlarini tezkorlik bilan tugatish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida (1996 yil yy aprel, 143 – sonli). Qarorga «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida»gi Nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida (1997 yil 23 dekabr, 558 – sonli). Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to'g'risidagi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funktsiyalari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida (1998 yil 7 oktyabr 427 – sonli). Qaror mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnologen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomilashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorga ilova tarzida keltirilgan «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Tabiiy, texnogen va ekologik tisdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida (1998 yil 27 oktyabr, 455 – sonli). Qaror bilan tasdiqlangan tasnifga muvofiq favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko'ra texnogen, tabiiy va

ekologik xususiyatli, Ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transschegarali turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora – tadbirlari to'g'risida (1996 yil 18 yanvar, 32 – sonli). Odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora – tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida (2003 yil 13 yanvar, 15 – sonli). O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida (2007 yil 3 aprel, 71 – sonli). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy xujjatlar asosida o'quv jarayonida talabalarga «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanining barcha yo'nalishlari bo'yicha keng manoda tushunchalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. «O`zbekiston buyuk kelajak sari» T.;O`zbekiston. 1989.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida». T.;O`zbekiston. 1997.
3. Karimov I.A. «Ozbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlochdyiriksh yuida». T.;O`zbekiston. 1997.
- 4.O`zbekiston davlat tili xaqidagi qonunga o`zgartirishlar va qo`shimchalar kiritish to`g`risida. Toshkent, 1997 yil 21 dekabr`.
- 5.O`zbekiston Respublikasida ma`muriy -hududiy tuzilish, toponimik ob`ektlarga nom berish va ularning nomlarini o`zgartirish masalalarini xal etish to`g`risida (O`zbekiston Respublikasining qonuni), Toshkent, 1996 yil 30 avgust.
- 6.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O`zbekiston Respublikasidagi ma`muriy-xududiy birliklar, axoli punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik ob`ektlarni nomlarini tartibga solish to`g`risida” qarori, Toshkent, 1996 yil 1 may.
- 7.Juchkaev V.A. Obhaya toponimika. Minsk. 1980 yil.
- 8.Murzaev E.M. Ocherki toponimiki. Moskva 1974 yil.
- 9.Murzaev E.M. Geografiya v nazvaniyax. Moskva. 1982 yil.
- 10.Popov A.I. Geograficheskie nazvaniya. Vvedeniya v toponimiku. M, 1982 yil.

- 11.Pospelov e.M. Toponimika v shkol`noy geografii. Moskva, 1981 yil.
- 12.Pospelov e.M. Shkol`nyy toponimicheskiy slovar`. M,1988 yil.
- 13.Superanskaya A.V. Chto takoe toponimika. Moskva 1987 yil.
- 14.Xasanov X. O`rta Osielik geograf va sayexlar. Toshkent 1967 yil.
- 15.Xasanov X. Yer tili. Toshkent 1977 yil.
- 16.Xasanov X. Geografik nomlar imlosi. Toshkent, 1962 yil.
- 17.Xasanov X. Geografik nomlar lug`ati. Toshkent 1964 yil
- 18.Xasanov X. Geografik nomlar siri. Toshkent, 1987 yil.
- 19.Qoraev S. Toponimika-joy nomlari xaqidagi fan. Toshkent, 1980 yil.
- 20.Qoraev S. Toponimika O`zbekistonda, Toshkent 1991 yil
- 21.Qoraev S. Toshkent toponimlari, Toshkent 1991 yil.
- 22.Qoraev S. Geografik nomlar ma`nosi. Toshkent 1994 yil.
- 23.Oxunov N. Joy nomlari ta`biri. Toshkent, 1994 yil.
- 24.G`ulomov P. Jo`g`rofiy atamalar va tushunchalari izoxli lug`ati. T. 1994 yil.
- 25.Mirartik Mirabdulla o`g`li. Jo`g`rofiy atamalar lug`ati. Toshkent 1992 yil.
- 26.Ernest Begmatov. Joy nomlari -ma`naviyat ko`zgusi. Toshkent, 1998 yil.
27. Elyektron adabiyotlar va Intyernyet manbalari. Intyernyet saytlar:

<http://geo.1september.ru>.

wgeo.ru

geografiya.ru

world.freeglobus.com

www.ref.nnov.ru